

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi

Toshkent Moliya Instituti

**Mutaxassizlikka kirish" fanidan o'quv
qo'llanma.**

TOSHKENT-2005

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vasirligi

Toshkent Moliya Instituti

Mutaxassizlikka kirish" fanidan o'quv qo'llanma.

5340900 «Buxgalteriya hisobi va audit» bakalavriyat yo'nalishi uchun

TOSHKENT-2005

«Mutahassislikka kirish» fanidan o'qub qo'llanma.
T.: TMI, 2005y.

Annotasiya. Hozirgi kunda «Ta'lim to'grizida» gi qonun va « Kadrlar tayyorlash milliy dasturi » asosida Oliy ta'lim sohasida keng islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladah zamonabiy darsliklarni yaratish, o'quv jarayohlarida yangi pedagogic texnologiyalarni, uslublarni go'llash, ayniqsa talabalarni mustaqqil o'z ustida ish olib borish uchun mustaqqil fikrlashqa o'rgatishga mo'ljallangan o'quv adabiyotlarini yaratish mihim masala bo'lib qolmoqda.

Ushbu o'quv qo'llanmada O'zbekiston Respublikasida oily ta'lim, mustaqqil ish va talabalar mehnatini ilmiy tashkil etish, talabalarni g'oyaviy tarbiyalash uslublari keltirilgan bo'lib, talaba har bir mavzuni o'rgahgahdan so'hg takrorlash savollari va mustaqqil topshiriqlarni bajarishi lozim.

Ushbu o'quv qo'llanma O'liy ta'limning bakalavriat yonalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib unda O'zbekistonda uzluksis ta'limning Davlat ta'lim standartlari asosiy qoidalariga muvofiq «Mutahassislikka kirish» fani mavzulari yoritilgan.

«Buhqalteriya hisobi»
kafedrasi mudiri: B.Hamdamov.

O'quv qo'llanma Toshkent Moliya Instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kenqash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

«_____»_____2005 y._____son majlis bayonnomasi.

Rektor v.b. A.Vahobov.

Mualliflar: katta o'q. Boqiyeva H.A.

katta o'q. Mamatqulova D.S.

Taqrizchilar: i.f.n. dots. B.Hamdamov.
i.f.n. dots. Abdibaeva.T.H.

TMI-2005

Har qanday millatning ravnaqi, umum bashariyat tarixida tutgan o'rni mavqei va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy ytuqli-giga bog'liqdir.

I.A Karimov.

KIRISH

_Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, salhiyatli avlodni tarbiyalashga bog'liq. Ana shunday dolzarb vazifani amalga oshirish uchun o'zbek xalqining ta'lim-tarbiyaga oid boy tarixiy tajribasini o'rganish va uni yangi zamon kishisini shakllantirish hamda tarbiyalashda hayotga amaliy tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning asriy orzusi bo'lib kelgan mustaqillikka erishish niyati Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov boshchiligida amalga oshirilib, konstitutsion huquq tarzida qonun bilan mustahkamlandi. Natijada xalq xo'jaligining barcha sohalari qatorida fan taraqqiyoti tarixini o'rganish uchun ham keng shart-sharoitlar vujudga keldi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" nomli risolasida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish yo'llari haqida fikr yuritar ekan: "Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tinchlik, ahil va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab, asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'isblash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erk-inligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir", deb ta'kidlaydilar.

Haqiqatdan ham qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlar yaratmasdan turib, butun vazifani amalga oshirib bo'lmaydi.

Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida Prezidentimiz I.A.Karimov so'zlagan nutqi va unda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash asosiy maqsad qilib belgilanib, uni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalis- blaridan deb hisoblandi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "...Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchl erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi.O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin, ongli tur-mush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam... o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan ongli tarzda, ozod va hur inson bo'lib yashaydi"

Demak, bugungi kunda yosh avlodni har jihatdan barkamol inson sifatida shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimida dolzarb tammolardan etib belgilandi.

Ma'lumki, barkamol inson deganda ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy kamol topgan shaxs tushuniladi. Ta'lim-tarbiyaning maqsadi ham har jihatdan barkamol shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Zero, "barkamol" so'zining lug'aviy ma'nosi ham kamolotga erishgan, kamol topgan, bekamu-ko'st, yetuk, har jihatdan to'kis, mukammal.

Hozirgi davrdagi o'zgarishlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, madaniyatlik, yuqori malaka, yuksak onglilik, ijodkorlik, jamiyat oldida mas'uliyatni his etishni talab etadi.

Hozirgi yangi jamiyatning rivojlanishi jarayonida insonni tarix, madaniyat va o'z hayotining obyekt sifatida bilishni shakllantirish va rivojlantirish imkoni vujudga kelgan bir sharoitda "inson - ijodkor shaxs" sifatida baholanmoqda.

Demak, ijtimoiy hayotda insonni dunyoni o'zgartiruvchi qudratli kuch sifatida, uning manfaatlarini himoya qilgan holda, ko'p qinali ijodiy imkoniyatlari beqiyosligini tushungan tarzda inson mohiyatini anglab yetish, uning borlig'i, hayotda tutgan o'rni va hayoti ma'nosini anglab etishiga munosabatining o'zgarishida namoyon bo'lmoqda.

Ma'lumki, shaxsda umurniy ijtimoiy xususiyatlardan tashqari o'ziga xos betakror xislatlar ham mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham shaxs - Ёи hamisha o'ziga xosliklar deb qaraladi.

Har bir shaxsda o'ziga xos ijtimoiy-maishiy munosabatlar patoyon bo'lib, unda umuminsoniy va o'ziga xoslik o'zaro bir biriga uyg'un va o'zaro bir-birini taqozo etgan holda dialektik birlikda barqaror bo'ladi. Lekin shaxsning o'ziga xosligi haqida gap ketganda uning faqat tashqi ko'rinishigina emas, ichki mazmuni ham nazarda tutiladi.

Demak, inson shaxs sifatida o'z nuqtayi nazari, hayotga ongli, ijodiy munosabati, o'z mas'uliyatini angelaydigan, erkin faoliyati orqali shakllanadi, real ijtimoiy faollik kasb etadi.

Qo'llanma, hozirgi zamon o'quv – qo'llanmalariga qo'yiladigan talablarga rioya qilingan holda tayorlangan bo'lib unda O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim tizimi, mustaqil ish va talabalar mehnatini ilmiy tashkil etish, talabalarni g'oyaviy tarbiyalash uslublari keltirilgan bo'lib, talaba har bir mavzuni o'rgangandan so'ng takrorlash va mustaqil topshiriqlarni bajarish lozim.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'limning bakalavriyat talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib unda O'zbekistonda uzliksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari asosiy qoydalariga muvofiq "Mutaxassizlikka kirish" fani mavzulari yoritilgan.

1 Mavzu. O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim

1.1.O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi va uning oliy ta'lim tizimiga ijobiy ta'siri

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tushunchasi va mazmunini qayta tashkil etishni varur qilib qo'ydi va qator chora-tadbirlar ko'rishni: «Ta'lim to'grisida»gi qonunni joriy etishni (1997. yil); yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni joriy etishni, namovaviy didaktik ta'minlash ishlab chiqishni, o'quv yurtlarini attestatsiyadan o'tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim sohasida uylarda tashkil etiladigan bolalar bogchalari hamda bolalar bogchasi-maktab majmui tarmog'i rivojlanib bormoqda. Bolalarga chet tillarni, goreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi 800 dan ortiq gurux tashkil etilgan.

Yangi tipdagi maktablar va umumta'lim o'quv yurtlari tarmog'i rivojlanib bormoqda. Xozirgi kunda 238 litsey va 136 gimnaziya ishlab turibdi. «Sog'lom avlod uchun», «Ma'naviyat va ma'rifat», «Iqtisodiy talim», «QISHLOQ maktabi», «Rivojlanishida nuqson bo'lgan bolalarni tiklash» va boshqa tarmoq dasrurlari ro'yobga chiqarilmoqda. Respublika umumta'lim maktablarida 435 mingdan ortiq o'qituvchi ishlamoqda, ularning 73 foizi oliy ma'lumotlidir. Mehnat bozorini, eng avvalo qishloq joylarda mehnat bozorini shakllantirishning xududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda xunar-texnika ta'limini qayta tashkil etishga kirishildi. Xozirgi kunda bu tizimda jami 221 ming kishini ta'lim bilan qamrab olgan 442 o'quv yurti, shu jumladan, 209 kasb xunar maktabi, 180 kasb-xunar litseyi va 53 biznes maktab ishlab turibdi. Bugungi kunda boshlang'ich kasb-xunar ta'limi o'quv yurtlarida qariyb 20 ming o'qituvchi va malakali mutaxassislar ishlamoqda .

Respublikada jami 197 ming kishi ta'lim olayotgan 258 o'rta kasb hunar ta'limi o'quv yurti ishlab turibdi. Ularda qariyb 16 ming o'qituvchi va muxandis-

pedagog xodimlar mehnat qilmoqda.

O'zbekiston oliy maktabi tizimi 58 oliy o'quv yurtini, shu jumladan 16 universitet, va institutni o'z ichiga oladi, ularda 164 ming talaba ta'lim olmoqda; 16 universitetning 12 tasi O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki ikki yilda tashkil topdi. Oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan 18,5 ming o'qituvchining 52 foizi fan doktori va nomzodlaridir. Oliy ta'lim kadrlar tayyorlashni xuquqiy yo'nalishga o'tkazish ishi olib borilmoqda, o'quv yurtlarining tarmog'i kengaymoqda, universitet ta'limi rivojlanmoqda, bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash boshlab yuborildi, oliy maktabni ko'p bosqichli tizimga o'tkazish amalga oshirilmoqda. **Abiturientlar** va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg'or usullarini joriy etilmoqda.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy - pedagog kadrlar sifatida oshgan talablarga muvofiq aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlash ishi kengaymoqda. Oliy attestatsiya komissiyasi tashkil etildi. **Respublikada** qariyb 4 ming aspirant bo'lib, ulardan 69 foizi oliy ta'lim tizimida va 31 foizi ilmiy- tatqiqod institutlarida ta'lim olmoqda. Jami ilmiy va ilmiy - pedagog kadrlarning 8 foizini fan doktorlari va 37 foizini fan nomzodlari tashkil etadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida 23 institut, 16 fakultet, 4 markaz va 14 malaka oshirish kurslari ishab turibdi.

Iqtidorli bolalar va o'quvchi yoshlarni qo'llab - quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobitqadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli o'smir va qizlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, ularning qobiliyati va iste'dodini o'stirish bo'yicha maxsus fondlar tashkil etildi, qobiliyatli yoshlarni chet ellardagi yetakchi o'quv yurtlari va ilmiy markazlarda o'qitish va stajirovkadan o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Fan va ta'lim soxasida xalqaro aloqalar kengayib bormoqda. Shunga qaramay, sodir etilgan o'zgartirishlar kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlay olmadi.

Ta'lim soxasidagi davlat siyosatining asosiy prinsplari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik harakterda ekanligi;
- ta'limning uzliksizligi va izchilligi;
- umumiy, o'rta, shuningdek o'rta maxsus kasb-xunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yo'ki kasb-xunar kollejida tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy harakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Bilim olish huquqi:

Jinsi, tili, yoshi, irqi, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy navar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlantirish, ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb xunar o'rgatish;
- barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichlardagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;
- oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Boshqa davlatning fuqorolari O'zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

Pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi.

Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o'quv yurtlariga ishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud xukmiga asosan ma'n etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'lim muassasalarining huquqiy asoslari

Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun xujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi Vazirlar Maxkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim muassasasi qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko'rsatadi.

Ta'lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya majmualariga hamda o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.

Ta'lim muassasalari ustavida belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shugullanishga haqli.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlari ushbu qonundan hamda boshqa qonun xujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lim soxasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun xujjatlari bilan ham tartibga solinadi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanilgan .

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti soxasida ustivor deb e'lon kilinadi. Xalqning boy intellektual me'rosi va umumbashariy qadriyatlari asosida, vamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muxim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-xunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hamda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqlol vazifalarini ilgari surish va xal etishga kadrlarning yangi faoliyati shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamyayatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb xunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratish, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini xis etadigan fuqarolarni tarbiyalashni navarda tutadi.

1.2. Oliy ta'limning mohiyati va asosiy xususiyatlari

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-xunar va OLIY TA'LIM MAZMUNUNIGA hamda sifatiga ko'yiladigan talablarni belgilaydi,

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Ta'lim berish tili.

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi «Davlat tili xaqida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi.

Ta'lim tizimi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun varur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy- pedagogik muassasalar;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga harashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni kayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim.

Maktabgacha talim bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti etti

yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy navar ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

- boshlang'ich ta'lim

- umumiy o'rta ta'lim.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun varur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti - etti yoshdan qabul qilinadilar.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlarning varur xajmini beradi, mustaqil fikirlash, tashkilotning qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yonaltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

O'rta maxsus kasb - xunarta'lim

O'rta maxsus, kasb - xunarta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik liseyda yoki kasb - xunarkollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik liseylar va kasb - xunar kasb - hunar kollejlari egallangan kasb-xunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi beradi.

Akademik lisey o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-xunarga yo'naltirilgan bilim oliishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-xunar kolleji o'quvchilarning kasb-xunarga moyilligi, maxorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblar bo'yicha bir yoki bir

necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-xunar o'quv yurtidir.

Oily ta'lim

Oily ta'lim o'rta maxsus, kasb - xunar ta'limi negizida asoslangan hamda ikki (bakalavriyat va magistratura) bosqichiga ega.

Oily ta'lim muassasalariga talabalar qqabul qilish davlat grantlari va pulli-shartnomaviy asosda amalgam oshiriladi.

Oily ta'lim ikki bosqichda: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oily ma'lumot to'g'risidagi xujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriyat va magistraturaga ega.

Bakalavriyat oily ta'lim yonalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, oqish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oily ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxvassislik bo'yicha bakalavriyat negizida kamida ikki yil davom etadigan oily ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oily ma'lumotni shrtнома asosida olishga haqlidirlar.

Oily o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Oily o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oily o'quv yurtidan keyingi ta'lim oily yurtlari va ilmiy – tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad'yunktura, doktorontura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy – pedagogic kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun xujjatlarda belgilanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

1.3. O'zbekiston Respublikasida O'liy ta'limning rivojlanish bosqichlari

O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim rivojlanish bosqichma-bosqich royobga chiqariladi.

Birinchi bosqich(1997-2001 yillar) - mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni islox qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu bosqichda quyidagilarni amalga oshirish varur:

- «Ta'lim tug'risida»gi qonunga muvofiq ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta ko'rish va tubdan yangilash;
- pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'larning malakasini oshirishni vamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;
- ta'lim oluvchilarning yusak tayyorgarlilik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-axlokiy savilsini sifatiga nisbatan ko'yiladigan varur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish;
- o'quv-uslubiy majmualarning hamda ta'lim jarayonini didaktik va axborot ta'minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlashga byudjetdan tashqari mabg'lalar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish, davlat muassasalari bilam bir qator nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirishni ham navarda tutgan xolda ta'lim xizmati ko'rsatish soxasida raqobatga asoslangan muxitni vujudga keltirish;
- ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting kadrlar tayyrlash sifati va ularga bo'lgan extiyojning monitoringin olib borish tizimini ishlab chikishb va joriy etish;
- xalqaro aloqalarni kengaytirish va kuchaytirish, kadrlar xaqaro donorlik tashkilotlari va fondlari faoliyatiga tegishli sharoitlar yaratish, shuningdek respublika ta'lim soxasiga chet el investisiyalarini jalb etish boyicha real chora - tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning monitoringini olib borish. Ushbu bosqichda bolalarni olti-etti yoshdan maktabga qabul qilish, ularni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanganligini e'tiborga olgan xolda amalga oshiriladi. Taqozo etilayotgan o'quvchi o'rnlari varur moddiy texnika shart-sharoitlari va pedagog kadrlar bilan ta'minlangan xolda izchil tayyorlanadi.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro'yobga chiqarish yo'nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Ikkinchi bosqich(2001 – 2005 yillar). Milliy dasturni tuluq ro'yobga chiqarish, mexnat bozorining rizoilanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan xolda unga aniqliklar kiritish.

Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb - xunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning kobiliyatlar va imkoniyatlariga qarab, tabakalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirish ta'minlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muxit vujudga keltiriladi.

Ta'lim muassasalarining moddiy - texnika va axborot bavasini mustaxkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilgor pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi.

Ta'lim xizmat ko'rsatish bozorini shakllantirish mexanizmlari to'liq ishga solinadi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar)- to'plangan tajribani taxlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bavalari yanada mustaxkamlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'kuv – uslubiy majmualar, ilgor pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanadi.

Milliy (elita) oliy ta'lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-xunar ta'lim muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o'z o'zini boshqarish shakllari mustaxkamlanadi.

Ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta'lim tizimi jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan tuliq, qamrab olinadi.

Kadrlyar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qisimlari quyidagilardan iborat:

1) Shahs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

2) Davlat va jamiyat va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

3) Uzluksiz ta’lim - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bolib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat kursatish muxitini o’z ichiga oladi;

4) fan-yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilgor pedagogiya va axborot texnologiyalarni ishlab **chiqaruvchi**;

5) inshlab chiqarish-kadrlarga bo’lgan extiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo’yiladigan talablarni belgilochi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jixatidan ta’minlash jarayonining katnashchisi.

Davlat va jamiyat uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo’lishini va xayot o’zgarishlariga moslanuvchanligini ta’minlaydi.

O'zbskiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta’lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvesiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jixatlariga daxldor bo’lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

Umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb – hunar ta’limi negizidagi oliy ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining mustaqil turi bo’lib “Ta’lim to’g’risida» hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida» gi O’zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Ta'lim va tarbiyaning gumanistik demokratik mazmunda ekanligi;
2. universitet ta'limining ustivorligi;
3. o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning
4. uzluksizligi va ketma-ketligi;
5. ta'lim tizimining dunyoviy mazmunda ekanligi;
6. davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishining hamma uchun ochiqligi;
7. ta'lim dasturlarini tanlashga umumiy va tabaqalashgan yondashuv; bilimdonlik va iste'dodni rag'batlantirish;
8. oliy ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;
9. oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish birlashuvini ta'minlash.

Talabalarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish| davlat grantlari va to'lov – kontrakt vositasi bilan abituriyentlarning bilim darajasini test va boshqa sinov turlariga binoan aniqlash yo'li orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalari yuridik shaxs, ular oliy ta'lim dasturlarini amalga oshiradilar, amaldagi qonuniy tartibda tashkil etadilar, ularning ustavi va mazkur Nizom asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Oliy ta'lim muassasasi ustavi mazkur Nizom, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 5 yanvar 5- sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Ta'lim muassasasi ustavini ishlab chiqish tartibi» ga muvofiq tayyorlanadi, Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan, maxalliy ma'muriy idoralarda ro'yxatga olinadi.

Oliy ta'limning maqsadi O'zbekistonni yuksak rivojlangan demokratik mamlakatlar darajasida ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy-ijtimoiy madaniy rivojlanish bilan ta'minlay oladigan, yuksak ma'naviy, madaniy va ahloqiy fazilatlarga ega yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar etishtirishdir.

Oliy ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar:

- Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ilg'or, zamonaviy ta'lim va kasb - hunar dasturlari asosida yuqori samarali o'qitishni tashkil qilish va malakali kadrlar etishtirishni ta'minlash;

- malakatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishi istiqbollari, talablariga binoan fan, texnika, ilg'or texnologiya, va madaniyatning zamonaviy yutuklari asosida kadrlar tashkil kilish va uning uslublarini muntazam takomillashtirish;

- yoshlarni milliy tiklanish mafkurasi va umuminsoniy qadriyatlarni bilish asosida, mustaqillik g'oyalari, Vatan, oila, tabiatga mehr va insonparlik ruxida tarbiyalash;

- o'quv amaliyotiga yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni kiritish, o'qitishni shaxsiylashtirish va masofaviy vositalar bilan ta'minlash;

- ta'lim fan va ishlab chiqarish birlashuvining amaliy tizimlarini ishlab chiqazrish va amaliyotga kiritish;

- ilmiy – pedagogik kadrlar va talabalarning ilmiy tadqiqotlari va ijodiy faoliyatlari orkali fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish;

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatli muxitni shakllantirish;

- oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish va ular mustaqilligini kengaytirish;

- ta'sischilar, vasiylar, jamoat kuzatuv kengashlari shaklida yangi jamoat boshqaruvini kiritish;

- oliy ta'lim sohasidagi yuksak rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish.

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim va kasbiy-ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari

- oliy ta'lim rivojlanishiga zarur bo'lgan tadqiqotlar ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

- ta'limni boshqarish davlat idoralari, hamda ular tasarrufidagi korxonalar, muassasa va tashkilot;

- oliy ta'lim muassasalari mutaxassislar tayyorlashni oliy ta'lim yunalishlari va ixtisosliklarni klassifikatoriga muvofiq amalga oshiradi. Faqat davlat ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan ta'lim

yunalishlari va ixtisosliklar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi joriy qiladi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklarining ro'yxati ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi marketing rivojlanishi bilan aniqlab boriladi va mehnat bozori talabi hisobga olingan holda, davriy qayta kurib chiqiladi.

Oliy ta'lim ikki pog'onaga-bakalavriat va magistraturaga ega. Bakalavriat ixtisosliklar yuqsalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, o'rta maxsus, o'rta kasbiy ta'lim negizida, muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavr dasturi tugallangandan so'ng bitiruvchilarga davlat attestasiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha «bakalavr» darjasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namuandagi, kasbiy faoliyabilan shug'ullanish yoki oliy ta'limni keyingi bosqichida o'qishni davom ettirish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Magistratgusla anik ixtisoslik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyatdan keyin uning negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Magistratura dasturini tugallagan bitiruvchilarga davlat attestasiyasi qonuniga ko'ra ta'lim yo'nalishining muayyan ixtisosligi bo'yicha «magistr» darjasi beriladi va tegishli ilova bilan davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Magistraturaga kabul qilish tanlov asosida, ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idorasi tasdiqlagan «magistratura xaqida nizom» da **belgilangan** tartibda amalga oshiriladi.

Davlat nusxasidagi bakalavr yoki magistr diplomlari ular egalariga o'zlarining ta'lim yo'nalishi (ixtisos) bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki keyingi turdagi ta'lim muassasalarida o'qishni davom etish huquqini ham beradi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining quyidagi turlari joriy etilgani: universitet, akademiya, institut.

Universmyatet:

- bilim sohalari va bilim berish yunalishlarining keng qamrovliligi bo'yicha oliy va undan keyingi ta'lim turlari dasturlarini amalga oshiradi;

- oliy ta'lim muassasalari turli iqtisdiy soxalar kasb - hunar «kollejlari va akademik litceylar pedagogik qayta tayyorlash va malakasini oshirish amaliyotini bajaradi;

- fanlar keng qamrovi bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib boradi;

- bilimlarning tegishli soxalari bo'yicha ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi.

Akademiya

Muayyan turdagi soxalar va kadrlar tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha oliy va undan keyingi ta'limlarning kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;

ma`lum soxalar uchun oliy malakali kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi;

fan, madaniyat, san'at soxalari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar bajaradi;

uz faoliyati soxasida etakchi ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi.

Institut

- odatda bitimlarning bir sohasi doirasida oliy va unda keyingi ta'limlarning ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;

- xalq xo'jaligining ma'lum soxalari uchun mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiradi;

- amaliy va shuningdek fundamental ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

Oliy ta'lim muassasalarida yo'nalishlar bo'yicha fakultetlar, bo'limlar, talabalar akademik guruxlari tuziladi. Oliy ta'lim soxasidagi ta'lim xizmati bozori, davlat tomonidan boshqariladigan ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat

muxitini shakllantirish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari rivojlanishini ta'minlash, asosiy kasbiy-ta'lim dasturlarida ko'zda tutilmagan pulli maslaxatlar va qo'shimcha xizmatlarni rivojlantirishga asoslanadi. Oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kayta tuzilishi va tugatilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi joriy etgan tartibda amalga oshiriladi. Davlat buyurtmasi bo'yicha oliy ma'lumotli va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash davlatga qarashli va nodavlat ta'lim muassasalariga har yili ajratiladigan davlat ta'lim grantlari asosida amalga oshiriladi. Davlat ta'lim grantlari xisobiga bo'lgan o'qitish harajatlari byudjet xisobiga koplanadi. Korxonalar va tashkilotlar buyurtmalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash ta'lim muassasalari tomonidan kontrakt asosida amalga oshiriladi. Korxonalar va tashkilotlar o'z grantlarini ta'lim va ilmiy muassasalariga ham, bevosita fuqarolarga ham ajratishi mumkin. Korxonalar va tashkilotlarning grantlari bevosita fuqarolarga, ularning ta'lim muassasalariga kirish uchun konkursdan o'tish natijalariga ko'ra ajratiladi.

Ta'lim va ilmiy muassasalarining ta'lim jarayoni bilan bog'liq harajatlarga, shu jumladan, o'qituvchilar va ilmiy xodimlar mehnatiga haq to'lash, moddiy texnik negizni mablag bilan ta'minlash, rivojlantirish va uni mustaxkamlash harajatlari, tashkilotlar fuqarolardan olingan mablag'lar xisobiga ham qoplanadi.

Davlat hamda korxonalar va tashkilotlar grantlarini ta'lim va ilmiy muassasalar yoki fuqarolarga ajratish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tasdiqlagan «Davlatga qarashli va nodavlat ta'lim muassasalari uchun ta'lim grantlari xaqida»gi Nizom asosida joriy kilinadi.

Davlat ta'lim grantlari asosida ta'lim olgan mutaxassislardan foydalanish bozor munosabatlari bilan davlat manfaatlarini samarali qo'shgan xalqda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasasi tomonidan davlat ta'lim standartlari bajarilishi hamda kadrlar tayyorlash sifatining nazorati ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idorasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Davlat test markazining Kadrlarni tayyorlash sifatini nazorat qilish,

pedagogik kadrlar va ta'lim muassasalarini attestasiyalash boshkarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarini attestasiyadan o'tkazish ularning idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizom asosida Davlat test markazining Kadrlarni tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagogik kadrlar va ta'lim muassasalarini attestasiyalash boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarini akkreditasiyalash tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi joriy qiladi. Davlatga qarashli oliy ta'lim muassasasini ta'sis etish to'g'risidagi dalolatnoma unga ta'lim faoliyatini olib borish huquqini beradi. Nodavlat oliy ta'lim muassasasi ta'lim faoliyatini olib borish huquqiga davlat akkreditasidan o'tgan paytdan boshlab ega bo'ladi va amaldgi tartibda attestasiyadan o'tkaziladi. Oliy ta'lim muassasasi davlat akkreditasidan attestasiya natijalari bo'yicha maxrum qilininishi mumkin. Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarkning quyidagi turlari joriy qilingan: ma'ruza, maslaxat, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, kollokvium, mustaqil ish, amaliyot, kurs loyixasi (ishi), malaka bitiruv ishi.

Auditorida mashg'ulotlarining barcha turi uchun 45 (yoki tanaffussiz juft mavzular uchun 40) minutli akademik soat joriy qilingan. Mashg'ulotlar o'rtasidagi tanaffus 10 minutdan kam emas.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv yili, odatda, ikki semstrga bo'linadi, ulardan har biri talabalar uzlashtirishi natijalarini yakunlanishi bilan tugallanadi. Talabalarni bilimi «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli», «qoniqarsiz» baholarga muqobillashtirish ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Bugun biz Kadrlar tayorlash milliy dasturining ikkinchi bosqichi, yangi sifat bosqichiga o'tdik. Bu deygan so'z 2003-2005 yillarda ta'lim tizimida tub sifat o'zgarishlari sodir bo'lmog'I lozim.

Xo'sh bu yerda nimalar nazarda tutilyapti?

Barchamizga ma'lumki, nima ishlab chiqarish kerak? Mahsulotni qanday ishlab chiqarish kerak? Kim ushbu mahsulotni sotib olish mumkin? kabi muammolar resurislarning cheklanganligi va ehtiyojlarning cheksizligi sharoitida kechadigan jarayon sifatida bozor iqtisodiyotining to'rt ustuni bo'lgani kabi ta'lim jarayoni ham bir tomondan bilimga nisbatan cheksiz ehtiyojlar ikkinchi tomondan cheklangan imkoniyatlar sharoitida kechadi.

Bu yerda, "Nimani o'qitish kerak?", "Qancha o'qitish kerak?", "Qanday o'qitish kerak?", "Kim uchun o'qitish kerak?" deygan muammolar ta'lim tizimi muammolari sifatida har doim ko'ndalang bo'lib turadi ularning yechimi asosan to'rtta tayanch ustunlarining bugungi kun talabi darajasida ekanligiga bog'liq bo'ladi.

1-ustun. Ta'lim eng avvalo moddiy o'quv bazasini zamonaviyligiga bog'liq. U o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari uchun makon va muhit vazifasini o'taydi. O'quv bazasi qanchalik talab darajasida bo'lsa, kadrlarni tayorlash sifati ham shunchalik yuqori bo'ladi. Bu oddiy haqiqat.

2-ustun. Ta'lim mazmunini moddiy o'quv bazasi, DTS va o'quv darsliklaridan keyin, albatta, ularga asoslanib yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarsiz tasavvur qilish qiyin.

Milliy ta'limning uchunchi tayanch ustuni- bu faol o'qtuvchidir. Xo'sh, ular o'quvchilar oldida o'zlarini ta'lim-tarbiya, saboq va odob, mehri va muruvatda qarzidor deb his qilishmayaptimikinlar? Har bir o'qtuvchi o'z o'rnini, haqiqiy joyini topganmi? Umuman qanday o'qtuvchini faol o'qtuvchi deya olamiz?

Ta'limning to'rtinchi tayanch ustuni- bu faol o'quvchidir. Xo'sh ular o'qish jarayonida passiv eshituvchi, quloq soluvchiligicha qolmayaptimikinlar? Ularning yangiliklarni qabul qilish ko'lamini va darajalari yetarli? O'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalariga egami? Umuman qanday o'quvchini faol o'quvchi deya olamiz? U qanday talablarga javob berishi kerak?

Bizning fikrimizcha, agar o'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqi o'ta yuqori bo'lsa va ijodiy yondoshuv egasi bo'lsa, mustaqil o'rganishga bo'lgan

qobuliyati kuchli va o'z ustida mutassil ishlab, ilmiy ishda sobitqadam va ilmiy maqolalarni muntazam chop etiribkelayotgan, xorijiy tilni mukammal egalagan, xorijiy adabiyotlardan bimalol foydalana oladigan, tashabbuskorlik va sardorlik qobuliyati o'ta kuchli, kamtarin, intizomli hulq egasi va odobli, jamoat ishlarida faol qatnashib kelayotgan bo'lsa bunday o'quvchining bugungi kun talabiga javob berish yoki faollik darajasini 86-100 ball (foyiz) bilan ijodkor faol o'quvchi sifatida baholash mumkun.

Shunday qilib yuqoridagi to'rt ustuning mushtarakligi ta'minlangandagina tub sifat burilishlariga erishishimiz mumkun.

1.4. Hozirgi zamon iqtisodiy kadrlarni rolini ko'tarishda Prezidentning siyosati

Hozirgi sharoitda Respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilishga Prezident Islom Karimov katta e'tibor qaratmoqda. Mintaqalarda oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlari bazalarini, ta'lim-tarbiya sifatini va samaradorligini oshirish, xalq uchun zarur mutaxassis kadrlarni jahon talablari darajasida tarbiyalab topshirish ishlari bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim to'g'risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dasturi kabi muhim va uzoq muddatga mo'ljallangan xujjatlar qabul qilindi. Ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish bo'yicha Vazirlik kompleks tadbirlar rejasini ishlab chiqdi. O'quv yurtlarida o'qish amalga oshirishing muayyan tizimini vujudga keltirdi, ma'naviyat va ma'rifat markazlari, maxsus kurslari tashkil etildi. Bundan tashqari o'quv yurtlarida Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka taxdid, barharorlik shartlari va tarakkiyot kafolatlari» asari bo'yicha 50 soatli kurs, «Inson xuquqlari» bo'yicha 40 soatli kurs joriy etildi. Ulardan dars beruvchi professor o'qituvchilar, Prezident devoni xuzuridagi Davlat va jamiyat kurilishi akademiyasi xuzurida Vazirlik koshida tashkil etilgan maxsus o'quvlarda o'z malakalarini oshiradilar.

Tarbiyaviy ishlar bo'yicha Vazirlikni kompleks dasturi ishlab chikildi va ubarcha o'quv yurtlarida amalga oshirish uchun tarqatildi. Ko'pchilik o'quv yurtlarida bu dasturni amalga oshirish yuzasidan sezilararli va samarali ishlar bajarilmoqda.

Biroq ayrim o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarga qaratilgan tadbirlarning bajarilishi koniqarli emas hamda ular xozirgi kun talablariga to'la javob bermayapti. Ba'zi o'quv yurtlarida talaba-yoshlar orasida dinga kizikish moyilligi kuchayib borayotganligi sezilmokda. Ayrim talabalar dars mashg'ulotlari hisobiga nomoz o'kish bilan mashg'ul bo'lmokdalar, xatto oliy o'quv yurtlarida, yotokxonalarda nomoz va taxorat uchun maxsus xonalar ajratishni talab qilmoqdalar. Ular talabalar uylarida, xatto o'quv xonalarida ko'rgazmali o'quv qurollari, rasmlar bo'lishini istamayaptilar. Ular dars vaqtida undan keyin

bo'ladigan turli tadbirlarda ilmiy amaliy munozaralarda sust qatnashmoqdalar. Talabar orasida oq va qora matodan yopinchiqlar yopib yurish, soqol o'stirish xollari uchramoqda.

Talaba yoshlarni dining ayrim zararli okimlari ta'siridan ximoya qilish masalalarida ba'zi bir o'quv yurtlari raxbariyati tegishli chora tadbirlarni ko'rmayaptilar. Talaba yoshlar orasida dining fundamentalist, ekstremist oqimlarining zararli faoliyatlari, g'oyalari to'g'risida aniq va ishonarli suxbatlar, ma'ruzalar va boshqa samarali tadbirlar o'tkazmayaptilar. Bu esa ayrim salbiy diniy g'oyalarning o'quv yurtlariga kirib boorish imkoniyatlarini tug'dirmoqda.

Talaba-yoshlar orasida tarbiyaviy ishlarni zamon talablari darajasiga ko'tarish tadbirlarini ko'rish, ta'lim-tarbiya ishlarini samaradorligini oshirish, o'quv yurtlarida o'z kasbini yuksak darajada egallagan etuk mutaxassislar bilan bir qatorda ma'naviy-ahloqi jihatdan barkamol shxslarni tarbiyalab etishtirish ishlarini jonlantirish va bu masalalar yuzasidan Prezident Islom Karimov juda ko'p jamiyat uchun zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilgan. Ushbu qarorlardan kelib chiqib quyidagi ishlar amalga oshirilmokda:

«Respublika o'quv yurtlrida ta'lim-tarbiya ishlarini insonparvarlashtirish va barkamol shaxsni shakllantirish konsepsiyasi» va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur talablariga muvofiq o'quv yurtlarida barkamol avlod tarbiyasini yanala takomillashtirish tadbirlari» ma'qullansin va ular asosida har bir o'quv yurti o'z reja tadbirlari ishlab chiqildi;

O'quv yurtlarida talaba-o'quvchilarning mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy islohatlarga munosabatini aniqlashga, kasb xunar malakasi, xoxish va istaklari hamda moddiy ma'naviy axvolini o'rganishga qaratilgan sosiologik tadqiqotlar o'tkazildi.

Respublika Prezident Islom Karimovning tarixchi olimlar bilan uchrashuvi va unda "Tarixiy xotirasiz kelejak yo'q" mavzusidagi suxbat materiallari o'quv yurtlarida o'rganildi. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning tarixchi olimlar bilan uchrashuvi va unda O'zbekiston tarixini o'rganish bilan bog'liq masalalar yuzasi-

dan ilgari surgan g'oyalar, ko'tarilgan masala va muammolar xamda ularning echimlari to'g'risida fikr muloxazalar bu soxada faoliyat ko'rsatuvchi muassasalar, tashkilotlar, ilmiy xodimlar va butun xalqimiz uchun muxim dasturamal bo'ldi. Prezidentimiz o'z suxbatida O'zbekistonda tarix fani taraqqiyotining yangi yunalishlarini belgilab berdi. Milliy tariximizni o'rganishning yangi tamoyillariga asolangan yo'l-yoriqlar bo'yicha ilgari g'oyalarni ilgari surdi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Moskvada nashr etiladigan «Vremya MN» gazetasiga bergan bayonoti o'quv yurtlarida o'rganildi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning «Vremya MN» gazetasiga bergan bayonoti O'rta Osiyo mamlakatlarida xozirgi xalqaro axvolni, jumladan Qirgiziston janubida keyingi vaqtlarda sodir bo'layotgan voqea-xodisalarni atroflicha keng va chuqur taxlil etishda, vaziyatni to'g'ri va xolisona baholashda, juda muxim siyosiy xujjatdir. Uning mazmunini va unda ko'tarilgan muammolarni, qo'yilgan vazifalar taxlini keng ommaga va shu jumladan talaba yoshlarga etkazish va bu voqea-xodisalarga ularning aniq munosabatini shakllantirish hamda yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, mustaqilligiga taxdid solayotgan yovuz kuchlarga nisbatan murosasiz kurash hissini tarbiyalash hozirgi kunning eng dolvarb masalalaridan biridir.

Islom Karimovning «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga “O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz” deb nomlangan javoblarini o'quv yurtlarida ahamiyati nixoyatda katta bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O'z kelajakimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz» nomli «Turkiston» muxbiri savollariga javoblarida mamlakatimizning etti yillik mustaqillik tarixidan saboqlari va xulosalari, isloxatlarining xozirgi bosqichida mustaqillik mafkurasi, milliy g'oya, milliy g'rur, ma'naviyat masalalari qanday katta ahamiyat kasb etayotganligi, shu kunlarda istiqlolga xavf solayotgan ayrim mafkuraviy tahdidlarning mohiyati, kelajak XXI asrda ma'naviyat soxasidagi bosh g'oyaning mazmuni, Xotira va kadrlash kunining yangi qadriyat sifatida tarkib topaytotganligi, 1999 yil xalkimiz hayotida saylovlar yili sifatida ijtimoiy jarayonlarga ta'siri va boshqa muxim masalalar keng va atroflicha yoritib berilgan. Prezident javoblarida ko'tarilgan bunday muxim masalalar va ularning echimlari talaba

o'quvchilar, professor-o'qituvchilar, yosh olimlar, aspirantlar orasida keng va chuqur o'rganishni tashkil etadi.

Tayanch so'z va iboralar

1. Attestasiya
2. Bakalavr
3. Aspirantura
4. Doktorantura

Takrorlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasidagi Oliy ta'lim bosqichlarini rivojlanishini tushintiring.
2. Ta'limning rivojlanish bosqichlarini izohlang.
3. O'zbekiston Respublikasining moddiy texnik bazasini yaratishda Oliy maktabning vazifalari.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. A. «Istiqlol va ma'naviyat» T.: «O'zbekiston», 1994y.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: «O'zbekiston», 1995 y.
3. Karimov I.A. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» T.: «O'zbekiston», 1997 y.
4. «O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 1997 y.
5. Ma'naviyat va ma'rifat ijtimoiy markazlarini takomillashtirish xaqidagi Prezident Farmoni. T.: 1996 y.
6. Boboxonov A. O'zbekistondagi pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan.-T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 2002 y.
7. Donishmandlar tarbiya xususida. T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 2001y.

2 Mavzu: Toshkent Moliya institute

2.1 Toshkent Moliya institutining tashkil topishi

1931 yilda O'rta Osiyo Davlat universitetining mahalliy xo'jalik va huquq fakulteti tarkibidagi O'rta Osiyo Moliya-iqtisod instituti tashkil etildi (keyinchalik TMI). 1962 yilda TMIGA Toshkent Xalq xo'jaligi instituti berildi (TXXI).

1991 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra Toshkent xalq xo'jaligi institutining Moliya-kredit va hisob-iqtisod fakultetlari bazasida Toshkent Moliya Instituti tashkil etildi.

Toshkent Moliya instituti hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning ijrosini amalga oshira borib bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos Moliya, Banq Sug'urta, Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi, Investitsion loyihalarni moliyalashtirish, Buxgalteriya hisobi, Audit, Kasbiy pedagogik tayyorgarlik kabi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavr va magistrlik tayyorlaydi.

Istiqlolning o'n to'rt yilligini nishonlar ekanmiz, shu mo'tabar va ulug' darog'xda mehnat qilayotgan har bir insonning yuragi, g'ururi va iftikorga to'lishi tabiiydir. Toshkent Moliya instituti tashkil topganligining o'n to'rt yillik to'yi ham isqilolimiz shodiyonasiga ulanib ketmoqda.

O'n uch yil davomida vatanimizda amalga oshirilgan ishlar bamisoli asrlarga tenglashib, mamlakatimiz qiyofasini, yurtimiz jamolini butunlay o'zgartirib yubordi. Siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotdagi islohotlar va yangilanishlar, tobora yod bo'lib borayotgan shahar va qishloqlar, yangi-yangi zamonaviy korxonalar. O'quv maskanlari, madaniy-maishiy inshootlar, ko'prik va yo'llar, bir so'z bilan aytganda iqtisodiyotning tobora o'sib, mustahkam bo'layotganligining guvohi bo'lib turibmiz.

Iqtisodiyotning yuksalishiga siz, muxtaram murabbiylar ta'lim berib, yetuk mutaxassis qilib yetishtirayotgan farzandlaringizning ham hissasi beqiyos. Ular o'zlarining institutda olgan bilimlarini vatanimiz ravnaqi yo'lida hormaytolmay safarbar qilmoqdalar.

2.2. Institut rivojlanishining asosiy bosqichlari

Institutda kadrlar tayyorlashning ko'p bosqichli o'zluksiz tizimini ta'minlovchi modeli ishlab chiqarilib, u o'z ichiga moliya, soliq litseylari, bank kolleji, bakalavriyat, magistratura, malaka oshirish instituti, aspirantura, doktorantura bosqichlarini qamrab olgan. Mutaxassis kadrlar tayyorlash modelini hayotga tadbiiq qilish, ularni bugungi kun zamon talablari va jahon andozalariga mos bo'lishi uchun institutda beshta fakultet, «Soliq tashkilotlari uchun kadrlar tayyorlash markazi» va magistratura bo'limi hamda 15 ta kafedrada 350 dan ortiq professor-uqituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdeq institut qoshida mutaxassislar va iqtisodchi pedogoglarning, eng avvalo, kollejlarda uqituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi yangidan tashkil qilingan. Institut kafedra va bulimlarida 40ga yaqin fan doktorlari va professorlar, 160 ga yaqin fan nomzodlari va dotsentlar mehnat qilmoqda.

Hozirgi kunda institut - chet el turdosh universitetlari, elchixonalar bilan amaliy, o'quv-uslubiy hamkorlik o'rnatgan. Jumladan, AQSH, Germaniya, Angliya, Belgiya, Turkiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil va rivojlangan mamlakatlar ta'lim muassasalari. "Fulbrayt", "Tinchlik korpusi", "TASIS", "SOROS", "ESI", "DAAD", "IREX", "ACCELS" va boshqa taniqli dasturlar bilan o'zaro foydali shartnomalar asosida ilmiy- amaliy ishlar olib borilmovda. Institut professor-uqituvchilarining mazkur dasturlar doirasida stajirovka va malaka oshirishlari yulga qo'yilgan.

Institut o'quv jarayoniga bozor iqtisodiyotiga oid yangi fanlar kiritilgan va ular yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitilishi tashkil qilingan. Xorijiy tillarni chuqurroq. O'rgatishga, kompyuter texnikasidan foydalanishga katta e'tibor berilmovda. Darsliq o'quv qo'llaimalari yaratish reja asosida olib borilmoqda. Hozirgi paytda o'quv jarayonida zamonaviy kompyuter sinflari, "Internet" tarmog'idan foydalanish va masofadan turib o'qitish ishlari samarali yo'lga qo'yilgan.

Ilm fan-taraqqiyot manbai, jamiyat rivojini olg'a suruvchi kuchdir. Uning vazifasi, yurtboshimiz aytganlarideq kelajagimizning shakl-shamoyilini yaratish,

ertangi kunimizning yo'nalishlarini, (qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat. Bugungi kunda institut olimlari «Bozor munosabatlarini tartibga solishning moliya-kredit mexanizmi» muammosi ustida ilmiy izlanish ishlarini olib borish bilan birga, O'zbekiston Respublikasi fan va texnika davlat qo'mitasi fundamental tadqiqotlar sohasida muammolarni xal qilishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Jamoa o'tgan o'quv yillari mobaynida o'z zimmasiga olgan vazifalarni bajara borib, bank-moliya, soliq va sug'urta tizimida, kichiq va o'rta biznes, tadbirkorlik soxalarida ro'y berayotgan javoban institut infrato'zilmasini ilk rivojlantirish yo'lida anchagina samarali amalga oshirdi. Byudjetdan tashqari mablag' ishlab topish maqsadida institutda «BANNUR» xalqaro biznes maktabi, «Moliyachi» mintaqaviy biznes maktabi, «Qimmatli qog'ozlar mutaxasislarini tayyorlash» markazi «ILM – FAN – MASLAHAT» o'quv markazi, «XOLIS TA'LIM» o'quv ta'lim markazi, soliq tashkilotlari uchun kadrlar tayyorlash markazlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Yangi asrda biz demokratik fuqarolik jamiyatiga, chuqur integratsiyalashgan iqtisodiy makonga, yagona kommunikasiya va axborot tizimiga kirish uchun shaxdam qadam qo'ymoqdamiz. Bosgan qadamimiz qat'iyatli va ishonchli bo'lishi uchun esa bizga o'z Vatanini sevadigan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlay oladigan zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar zarur. «Zamona talabiga mos mutaxasis tayyorlamoqchi ekanmiz, - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz, - birinchi navbatda o'quv yurtlarimizning shakl- qiyofasi va tarkibi, moddiy bazasi ham zamonaviy bulishi shart».

2.3. Institutda ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy yo'nalishlari

Ushbu talabdan kelib chiqqan holda institutning rivojlanish strategiyasini belgilab olingan. Ular quyidagilar: Bilimga chanqoq yoshlar bilan ishlashga jiddiy e'tibor, ularning etarli ma'lumot olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratish. Talabalarga uqitilayotgan fanlar buyicha professor-o'qituvchilarni erkin tanlashga imkon berish;

Professor-uqituvchilarning saviyasi va bilimni oshrishga barcha shart-sharoitlarni yaratish zarur. Zero, ular o'z ustida ishlamasa, o'z soxasi bo'yicha rivojlangan mamlakat universitetlarining profeseorlari bilan tajriba almashmasa, albatta bunday ahvol o'quv jarayoniga salbiy ta'sir qiladi;

Ta'lim – avvalo darsliklardan boshlanishini inobatga olib, uni yaratishga har xil soha vakillarini jalb qilish va talabalarni zamonaviy adabiyotlar bilan to'liq ta'minlashga erishish;

Institutning boshqa davlatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan aloqasini yanada mustahkamlash, xorijdan o'qituvchilar chaqirishni kengaytirish. Aloqalarning o'zaro tengligini ta'minlash maqsadida institut maqomini xorijdagi o'quv yurtlari maqomiga tenglashtirish, ya'ni institutga «akademiya» yoki «universitet» maqomini berilishiga erishish; Institutda zamonaviy o'quv kompleksini qurish, bu yo'lda no-byudjet mablag'larni ko'plab ishlab topishga, chet el sarmoyalarini, xalqaro donorlik tashkilotlar va jamg'armalarning mablag'larini jalb etishga erishish, vasiylik va homiylik ishlarini yanada kengaytirish; Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada chuqurlashtirish. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy tekshirish institutlarining ilmiy salohiyatidan kengroq foydalanish, Moliya vazirligi va uning joylardagi bo'limlari, markaziy va tijorat banklar, soliq va sug'urta tashkilotlari, shuningdeq boshqa birlashmalar, korporatsiya, kompaniya va yirik korxonalar bilan hamkorlikda ilmiy-amaliy, o'quv uslubiy ishlarni rivojlantirishga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshira borib, belgilangan rejalarni ro'yobga chiqarib, institut nufo'zini, maiqomini yanada oshirishga, uning xalqaro maydon sari yanada dadil borishiga asos bo'ladi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganideq mamlakatimizning bundan keyingi taraqqiyotiga ta'lim tizimini yangilamasdan, uni rivojlantirmasdan, yani mustaqil jamiyatning yangi talabalariga va yangicha o'lchovlariga to'la javob beradigan yangi fuqaroni shakllantirmasdan turib erishib bo'lmaydi. Buning uchun institutda faoliyat ko'rsatayotgan barcha rahbar hodimlar, professor-uqituvchilar va talaba-yoshlarning xar biri shaxsan faol ishtiroki, bu sohaga qo'shayotgan shaxsiy ulushi xaqidagi tuyru va maq sad bilan yashashi zarur. Zero, mustakdillik shaxsiy va jamiyatimiz manfaatlarini chinakam uygunlashuviga katta imkoniyatlar yaratib bermovda. Ta'lim tizimining har bir xodimi «Vatan men uchun nima berdi?» deb emas, balki «Men vatanimga nima berdim?» degan ezgu fikr bilan, elim deb, yurtim deb yonib yashashlari keraq

Shu zaminda yashayotgan xar bir oila, ota-ona uchun, jamiyatimiz va davlatimiz uchun eng katta ishonch-tayanchimiz, suyanchimiz – o'sib kelayotgan yosh avlod, sevimli farzandlarimizdir.

Tayanch soʻz va iboralar:

- o Fakultet;
- o Rektorat;
- o Kengash;
- o Kasaba uyushmasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Toshkent Moliya institutining ajralib chiqish sabablarini tushuntiring.
2. Institutimizning strukturaviy toʻzilishi deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori» T.: «Oʻzbekiston», 1997 y.
3. «Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim toʻgʻrisida»gi qonuni 1997 y.
4. Maʼnaviyat va maʼrifat ijtimoiy markazlarini takomillashtirish haqidagi Prezident Farmoni. T.: 1996y.
5. Boboxonov A. «Oʻzbekistondagi pedagogic fikr taraqqiyoti tarixidan» T.: «Oʻqituvchi» nashriyoti, 2001 y.
6. Donishmandlar tarbiya xususida. T.: «Oʻqituvchi» nashriyoti, 2001 y.
8. Karimov I.A. «Istiqlol va maʼnaviyat» T.: «Oʻzbekiston», 1994 y.
9. Karimov I. A. «Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida» T.: «Oʻzbekiston», 1995 y.

3 Mavzu: Oliy maktabdagi o'qish jarayonini tashkil etishning ilmiy asoslari.

3.1. Oliy maktabdagi o'qishning xususiyatlari va maktabdagi o'quv jarayonidan farqi

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichiga ega.

Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grandlari negizida va pullik - shartnomaviy asosda amalga oshiriladi.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida 4 yil davom etadigan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavrlilik dasturi tugallanganidan so'ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo'yicha «bakalavr» darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqi beriladigan diplom topshiriladi.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

«Magistr» darajasini beradigan davlat malaka attestatsiyasi magistrlik dasturining intixosidir. Magistr'larga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi kasb-hunar faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- Bakalavriat va magistratura uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- Oliy ta'lim muassasalari uchun professor o'qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan chet ellardagi yetakchi o'quv va ilmiy markazlarda tayyorlash; Oliy ta'lim muassasalarida tarkibiy o'zgarishlar o'tkazish;
- Oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;
- Ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va o'zlashtirish.
- To'qqiz yillik o'qishdan iborat umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Ta'limning bu turi boshlang'ich ta'limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi.
- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarining kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.
- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:
 - Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;
 - Yuqori malakali o'qituvchi mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani

ular bilan to'ldirib borishni ta'minlash;

- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimning bu sohada raqobatga asoslangan muhitni shakllantirigani va samarali faoliyat olib borishni ta'minlovchi normativ bazasini yaratish;

- Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- Iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab ehtiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlovchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarni tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish.

3.2. Institutda kadrlar tayyorlash bo'yicha ixtisoslar

Kadrlar tayyorlash milliy modeli salmoqli element sifatida fanni o'z ichiga oladi, bu sohada:

- Tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlari tug'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlar shakllanadi, kadrlar tayyorlash tizimida ommalashtirish, o'rganish va foydalanish uchun kerakli ilmiy natijalar jamlanadi;

- Oliy malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi;

- Kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy-tadqiqot jihatidan ta'minlash infrastrukturalari vujudga keltiriladi, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish maqsadida bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasi shakllantiriladi;

- Mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integrasiyasi sodir bo'ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun ilmiy yutuqlar va kadrlarni xalqaro miqyosda almashinuv amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash tizimiga ilm fanning o'zviy ravishda kirib borishi uchun quyidagilar zarur:

- Ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va o'zlashtirish yo'zasidan maqsadli innovatsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilmfanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- Ilg'or axborot va pedagogik texnologiyadgarni joriy etish uchun eksperimental maydonchalar barpo etish orqali ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmini ro'yobga chiqarish;

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturini samarali tarzda bajarishni ta'minlash yo'zasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish.

Keling, o'zimizni maktabda o'qigan paytimizni yoki talabalik yillarini ko'z o'ngimizga keltirayliq Avgust oyini oxiri, o'quv yilining boshlanishida eng qiziqtirgan savol, qanday predmetlar o'tiladi va kim dars o'tadi? Tanaffusda, darsdan keyin o'zimizdan ko'ra yuqori sinf o'quvchilari yoki yuqori kurs talabalaridan

darrov so'raganimizda hamda suhbatga tushib ketganimizda qaysi o'qituvchi qanday dars beradi, qanday talablar qo'yadi. Qaysi o'qituvchi bergan dars tushunarli, qaysi guruhni omadi bor ekan, aksincha qaysi o'qituvchi o'tgan darslar haligacha jumboq.

Nima sababdan bir o'qituvchi bildirgan fikrlarni tezda ilg'ab olish mumkin, boshqasi bilan aksincha. Ikkinchisi nimanidir noto'g'ri qilgandir? Uning sabablarini ma'ruzaga tayorlash va uni tahlil qilish asosida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Iqtisodiyot nazariyasi fanida o'qiladigan ma'ruza faqatgina iqtisodiy rivojlanishning asosiy qonuniyatlarini ochib beribgina emas, fanning so'nggi yutuqlaridan foydalanilgan holda amaliyotda qanday ahamitga ega ekanligini, hayotda real muammolarni yechishdagi ahamiyatni ham ko'rsatish kerak.

Iqtisodiyot nazariyasi, nazariy fan ekanini, tafakkurda erishilgan yutuqlarni nazarda tutgan holda asosiy metodologik muammolarning bayoni yechimi bilan birlikda, ma'lum faktlar, raqamlar, dalillar bilan izohlash talab etiladi, ya'ni o'rtasida ma'lum bir nisbat bo'lishi talab etiladi.

3.3. Nazariy ta'lim bilan amaliy ta'limning o'zviy bog'lanishi

Seminar darsda talabalar bilim olishlari, uni puxta o'zlashtirishlari olgan bilimlarini kelgusida real hayotda qo'llashni o'rganishlarida alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham seminar darsni qiziqarli, talabalarni faol qatnashishlarini ta'minlaydigan uslublarni qullab dars o'tish muhim ahamiyatga ega.

Ma'ruzada odatda ko'proq bayon qilish yetakchi rol o'ynaydi. Seminar darsida esa talabalar aktiv rol o'ynaydi. Darsda turli uslublarni qo'llab ularni faolligini ta'minlash imkoniyati keng.

Ma'ruza darsi asosan monolog tarzida bayon qilinsa, seminar darsi turli-tuman dialog asosida olib boriladi. Odatda seminar darsida talabalarning bilimi o'z ustida ishlash darajasi aniqlanadi, nazorat qilinadi.

Seminar darslarining asosan 3 turi bor:

1. O'rganilayotgan fan yoki kursni chuqur o'rganishga yordam beradigan seminar darslari.
2. Ayrim muammo, asosiy yoki muhim mavzuni o'rganish uchun o'tkaziladigan seminarlar.
3. Tadqiqot xarakteridagi seminarlar.

O'quv jarayonida tashkil etishda seminar darslari alohida o'rin tutadi. Seminar talabalarning bilimlarini mustahkamlashni ta'minlovchi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi o'quv jarayoni shaklidir. Seminar mashg'ulotlarining maqsadi talabalarning chuqur bilim olishni ta'minlash, olgan bilimni real hayotda qo'llashga o'rganishdir.

Buning uchun talaba olgan axborotlarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot o'tkazish, tasdiqlash, xulosa chiqarishni bilishi kerak. Bunday mahoratga ega bo'lishga ko'p jihatdan seminar darsi yordam beradi.

Seminar darsining oldiga qo'yilgan bosh maqsadni amalga oshirish uchun darsni oldiga qo'yilgan qator vazifalarni amalga oshirish kerak. Bu vazifalar seminar darslari bajariladigan funktsiyalarda o'z ifodasini topadi.

3.4. Iqtisodiy kadrlarni shakllantirishida ijtimoiy fanlarning roli

Iqtisodiy qadriyatning shakllanishida ijtimoiy fanlarning roli beqiyosdir. Ijtimoiy fanlar tufayli talabalarning ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Ijtimoiy fanlarga misol qilib quyidagi fanlarni ko'rsatish mumkin: Iqtisodiyot nazariyasi, O'zbekiston tarixi, Falsafa, Dinshunoslik va ma'naviyatga oid qator fanlar shular jumlasidandir. Ijtimoiy gumanitar fanlar ichida iqtisodiy bilim beradigan fanlar kelajakda iqtisodchi kasbi bilan shug'ullanadiganlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bu fanlarga ko'proq vaqt berilgan. Misol uchun iqtisodiyot nazariyasi uchun auditoriya soati-144 soat, mustaqil ta'lim uchun - 72 soat, jami 216 soat berilgan. Buning sababi shundaki har bir insonning hayot asosini iqtisodiy faoliyat tashkil etadi. Bu albatta harr bir odamdan iqtisodiy fikrlashni o'rganishni talab qiladi. Bozor iqtisodiyotida ayniqsa bu muhim zaruriyatga aylanadi. Shuning uchun insonlarni yoshligidan boshlab iqtisodiy bilimlarni o'rgatishga kirishiladi. Oliy o'quv yurtining talabalari, ayniqsa iqtisodiy yo'nalishdagi o'quv yurtining talabalari iqtisodiy fikrlashni o'rganibgina qolmay, keng doiradagi iqtisodiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish, iqtisodiy rivojlanish tamoillariga baho berish, bu o'zgarishlar kelajakda qanday natijalarga olib kelishini, ko'z ungiga keltira bilishni o'rganishi zarur. Ma'lumki hozirgi paytda siyosatning asosiy muammolari iqtisodiy muammolar bo'lib, ularni tushunmay turib, muammolarni yechish uchun chora tadbirlar belgilab bo'lmaydi. Shuning uchun iqtisodiy bilimni chuqur egallash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu ko'proq boshqaruv iqtisod fakulteti talabalariga tegishli, chunki ular kelajakda ham iqtisodchi, ham iqtisodiy bilim beruvchi bulishlari kerak.

Tayanch soʻz va iboralar:

1. Oʻquv dastur
2. Kalendar reja
3. Texnologik xarita

Takrorlash uchun savollar.

1. Oliy taʼlimning mazmuni nima?
2. Nazariy taʼlim bilan amaliy taʼlimning uzviy boʻlganligini tushuntiring.
3. Kadrlar shakllanishida ijtimoiy fanlarning roli qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. A. «Istiqlol va maʼnaviyat» T.: «Oʻzbekiston», 1994y.
2. Karimov I.A. «Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida» T.: «Oʻzbekiston», 1995y.
3. Karimov I. A. «Barkamol avlod Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori» T.: «Oʻzbekiston», 1997y.
4. «Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim toʻgrisida» gi Qonuni, 1997y
5. Maʼnaviyat va maʼrifat ijtimoiy markazlarini takomillashtirish haqidagi Prezident Farmoni. T.: 1996 y
6. Boboxonov A. Oʻzbekistondagi pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. T.: «Oʻqituvchi» nashriyoti, 2001 y.
7. Donishmandlar tarbiya xususida. T.: «Uqituvchi» nashriyoti, 2001 y.

4 Mavzu: Oliy maktabda o'qitishning asosiy shakllari

4.1. Ma'ruza va dastlabki adabiyot manbalarining o'quv jarayonidagi yetakchi roli.

Ma'ruza va dastlabki adabiyot manbalarining o'quv jarayonidagi yetakchi rolini oshirish borasida Respublikamizda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Shulardan biri O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari hamda talaba-yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyasiga qaratilgan qo'shimcha ommabop adabiyotlarni tayyorlash va nashr etish to'g'risida»gi 1999 yil 22 iyun 208 sonli buyrug'idir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning asarlari, risolalari, nutq hamda ommaviy axborot vositalari vakillari savollariga bergan javoblari asosida mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan buyuk islohotlarni, xalqimizning mardonavor mehnatini ilmiy tarzda, chuqur va har tomonlama tahlil etib beruvchi, yoshlarda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda, ularni ma'naviy-axloqiy barkamol shaxs bo'lib yetipshishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladigan adabiyotlarni tayyorlash va chop ettirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha o'quv qo'llanmalari, ma'ruza mashg'ulotlari, ommabop adabiyotlarni buyurtma asosida tayyorlash va ularni chop etish ishlarini jadallashtirish maqsadida ushbu qaror qabul qilingandir.

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bo'yicha o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari hamda qo'shimcha adabiyotlarni tayyorlash va chop ettirish bo'yicha ruyxatlar tegishli ilovalarga muvofiq tasdiqlanadi.

Ilovalarda ko'rsatilgan o'quv adabiyotlarning qulyozmasini tayyorlash bo'yicha, ularning mualliflari bilan vazirlik o'rtasida shartnoma tuziladi. Qo'lyozmaning har bir bosma tabog'i uchun muallifga 10 ming so'mdan qalam xaqi to'lanishi belgilab qo'yilgan.

Ma'ruza soatlarini imkoniyat darajasida muayyan kurs talabalari va talaba magistrantlarni to'la qamrab oladigan potoklarda o'rganish, rejalashtirish

tavsiya etiladi. Kursni potoklarga bo'lib o'rgatish, faqat o'quv dasturi har xil tillarda olib borilganda, hamda katta sig'imli auditoriyalar mavjud bo'lmagan hollardagina ruxsat etiladi.

O'ta murakkab maxsus fanlardan (rektorat tomonidan belgilanadigan) ma'ruzalar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazuvchi o'qituvchilarning yillik o'quv yuklamasi, qayd etilgan mashg'ulotlarning xajmiga qarab, 30% gacha qisqartirilishi mumkin.

Amaliy mashg'ulotlar soatlarini hisolash jarayonida asosiy o'quv birligi bo'lib, akademik guruh hisoblanadi:

bakalavriatda 1-10 kishi;

magistraturada 3 - 4 kishi.

Bakalavriatura bosqichida chet tillari, muhandislik grafikasi, chizmalari, chizimachilik, chizma geometriya bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni hamda laboratoriya ishlari, kompyuter klasslarida mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida guruhlar 8-10 talabadan iborat guruhchalarga bo'linishi mumkin.

Bitiruv ishini bajaruvchi har bir talabaga ajratiladigan umumiy soatlar sonini ayrim kafedralar o'rtasida taqsimlanishi, mutaxassis chiqaruvchi kafedralarning taqsimoti bo'yicha rektorat (dekanat) ning qarori bilan amalga oshiriladi.

Xuddi shunday tartib magistrlik dissertasiyasini bajaruvchi har bir magistrantga ajratiladigan umumiy soatlar sonini ayrim kafedralar o'rtasida taqsimlanishida qo'llaniladi.

Ma'ruza, amaliy seminar, laboratoriya mashg'ulotlariga va o'quv amaliyotiga tayyorgarlik ko'rish.

Ma'ruza matnlarini yozish va qayta tahrir etish. Ma'ruza matnlarini, mashq va masalalar to'plami, laboratoriya amaliyoti va boshqa o'quv uslubiy materiallarni, jumladan, kurs va bitiruv ishlari hamda magistrlik dissertasiyasini bajarish bo'yicha qo'yiladigan talablarga oid uslubiy qo'llanmalarni chop etishga tayyorlash.

Nazorat ishlari va test savollari variantlarini hamda o'zlashtirishni aniqlashga doir reyting nazoratining boshqa turlarini ishlab chiqish. Proyeksiya vositalari eskizlari (diapozitivlar, diafilmlar va shunga o'xshashlar)ni ishlab chiqish, o'quv tele va kinofilmlar stsenariyalarini yaratish. Talaba va magistrantlarning ishlab chiqarish amaliyotiga tayyorgarlik ko'rish.

Pedagogik malakata oshirish bo'yicha qilinadigan joriy ishlar (o'quv ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'qish, ilg'or ishlab chiqarish tajribasini o'rganish va hokazo), natijasi bo'yicha hisobot taqdim etiladi.

Kafedraning o'quv va o'quv uslubiy ishlariga rahbarlik qilish. Amaliyotni o'tkazish bo'yicha kalendar jadvallarni tuzish. Ma'ruzalar matniga, mashq va malasalar to'plami, laboratoriya amaliyotini o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarga va boshqa o'quv – uslubiy qo'llanmalarga taqriz yozish.

O'quv jarayonida texnika vositalari va EHMni qo'llash bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish. Amaldagi laboratoriya ishlarini vamonaviylashtirish va yangilarini joriy etish.

Malaka oshirish instituti, malaka oshirish fakultetining maxsus fakultetlari tinglovchilari uchun topshiriqlar va uslubiy ko'rsatmalarni tuzish, kontrol va uy vazifalari, individual laboratoriya ishlari, amaliyotda ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha topshiriq va har hil materiallarni to'plashni tashkil etish. Talaba va magistrantlar bilan olimpiadalarni tayyorlash va o'tkazish.

Ishbilarmonlar o'yini, ishlab chiqarish masalalari va muayyan o'quv uslubiy materiallarni tayyorlash. Kafedra rahbarlari va o'qituvchilarining o'varo darslarga kirishini tashkil etish. O'quv jarayoniga EHMni tadbiiq qilish bilan bog'liq bo'lgan (vazifalarni ishlab chiqish, programmalarni sozlash va hokazo) ishlarni tashkil etish va natijasi bo'yicha hisobot berish.

4.2. Seminar, amaliy va laborotoriya mashg'ulotlari, ularning mohiyati va ahamiyati.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining asosiy talablaridan biri bo'lib, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga to'la javob beruvchi, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatlasha oladigan, malakali, Vatanga sodiq va fidoiy kadrlarni etishtirish hisoblanadi. Bunday kadrlarni tarbiyalab etishtirish oily o'quv yurtlari oldiga yangicha mazmunga ega bo'lgan vazifalarni amalga oshirishni va birinchi navbatda o'quv jarayoni tashkil etishda yangi shakl va uslublarni, o'quv laborotoriya kengaytirish va ularni vamonaviy asbob-uskunalar hamda jihozlar bilan ta'minlanishi talab etadi.

1998-1999 o'quv yilining bosh masalalaridan biri etib, oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayoni sifatini oshirishga bevosita bog'liq bo'lgan o'quv laborotoriya honalarni vamonaviy texnika, asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlash ishlari hisoblandi.

Joriy yilning 1 dekabriga qadar oliy o'quv yurtlaridagi mavjud o'quv jihozlari, asbob-uskunalar va texnika vositalarini inventarivasiyasini o'tkazish hamda oliy o'quv yurtlari talabnomalari asosida laborotoriyalarni vamonaviy texnika, asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlash dasturi ishlab chiqildi.

O'quv va ilmiy laborotoriyalar uchun asbob-uskuna va jihozlar ishlab chiqaruvchi korxonalar va tashkilotlarning yangi kataloglarini harid etish va joriy yilning 1 dekabriga qadar o'quv yurtlariga etkazish yuklatilgan.

Video-ma'ruvalarning qisqa mazmunli tematik rejalarini tuzish, barcha rasm, chizma va sxemalar bajarilgan annotatsiyaviy reja bo'yicha video-ma'ruvalar matnlari yozildi. Televizion ma'ruvaning ssenariysi ishlab chiqildi hamda uning adabiy ssenariysiga taqriz yozildi. Telema'ruvalarni ko'rish va muhokama etish bo'yicha uslubiy komissiya ishida ishtiroq etish. Kafedra majlisida televizion ma'ruvalar kursining annotatsiyaviy tematik rejalarini va television ma'ruvalar ssenariylarini ko'rib chiqish tasdiqlash. Fan bo'yicha talaba va magistrantlar uchun adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatuvchi haritalar tuzilgan.

Rejalashtirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini bajarilishi (ilmiy tadqiqot mavzuiga rahbarlik qilish, ilmiy tadqiqot ishlarining bevosita bajarilishi, ilmiy tadqiqot ishlari

natijalarini tadbiq etilish bo'yicha bajarilgan ishlar, hisobot taqdim etish). Darslik, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqola va ma'ruvalarni yozish hamda nashrga tayyorlash. Darslik, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqola va ma'ruvalarni ilmiy a'zolarining amaldagi o'quv yuklamasiga qo'shimcha ravi-shda taqsimlandi.

4.3. Imtihon va sinov imtihonlarida reyting usuli va uning ahamiyati.

Imtihon va sinov imtihonlarida reyting usuli va uning ahamiyatini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Talabalar bilimni nazorat qilish va baholash reyting tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 1999 yil 8 iyun 194-sonli buyruqni qabul qildi. Ushbu buyruqdan ko'zlangan maqsad Respublika xalq ho'jaligini raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlash, talabalarda o'qitilayotgan fanlarga nisbatan mas'uliyatni oshirish, topshiriqlarga ijodiy yondoshish, mustaqil ishlash va fikrlash, o'z bilimni muntavam ravishda oshirish, adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish, shuningdek amalda qo'llanilayotgan reyting tizimini yangi uslub va shakllar bilan takomillashtirish hamda professoro-'qituvchilar mas'uliyatlarini oshirishdir.

Yangi tahrirdagi Namunaviy Nizom 1999- -2000 o'quv yilidan boshlab barcha oliy ta'lim muassasalarida joriy etildi. "Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida "yozma ish" usulini tadbiiq etish bo'yicha" Namunaviy Nizom tasdiqlandi.

Joriy o'quv yilining yakunida reyting tizimining YaB bosqichida o'tkaziladigan tayanch tushunchalarga asoslangan "yozma ish" usuli ToshDU, ToshDIU, ToshDShI, TTESI va TAYIlarning bittadan fakultetlarida tajriba sifatida tadbiiq etildi. ToshDU, ToshDIU, TotDShI, TGESI va TAYI rektorlari "yozma ish" usulini tajriba sifatida o'tkazish uchun belgilangan fakultet talabalari va professor-o'qituvchilariga barcha sharoitlar yaratdilar.

Talabalar bilimni reyting tizimi bo'yicha baholashda "yozma ish" natijalariga alohida e'tibor qaratildi. Joriy o'quv yilida o'tkazilgan "yozma ish" natijalari chuqur tahlil etildi. Reyting tizimini o'quv jarayoniga to'la tadbiiq etishni ta'minlash vazifasi o'quv ishlari prorektori zimmasiga yuklatildi. O'quv rejasidagi fanlar dasturiga hamda qalendar-tematik rejalarga reyting tizimining joriy etilishi va tartibi to'g'risida 4 soat hajmida yuklama kiritilgan. Reyting tizimi bo'yicha talabalar

bilimini baholash tartibi va me'zonlari muntavam ravishda tahlil etildi va talabalar e'tiboriga etkazish ta'minlandi.

Reyting tizimining to'la joriy etilishini ta'minlash maqsadida kafedralarda uslubiy qo'llanmalarining yaratilishiga va chop etilishiga alohida e'tibor qaratilayapti.

Talabalar bilimini reyting tizimi bo'yicha baholashda "yozma ish" usulini tadbiq etish to'g'risidagi Namunaviy Nizomni tajriba sifatida tadbiq etayotgan oliy ta'lim muassasalariga uslubiy yordam ko'rsatish topshirildi.

Tajriba o'tkazilayotgan oliy ta'lim muassasalarininig taklif va mulohazalarini umumlashtirish va tegishli tavsiyalar kiritish yuklatildi. Oliy va urta maxsus maktab muammolari institutida talabalar bilimini reyting tizimi bo'yicha baholashda qo'llanilayotgan Namunaviy Nizomlarni ilmiy asosda takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish hamda tegishli taklif va mulohazalar kiritildi

Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Millim dasturi" qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998 yil 30 oktyabr 305-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim to'g'risida"gi Nizom asosida ishlab chiqilgan va oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholashda me'yoriy hujjat sifatida qabul qilingan.

Talabalar bilimini reyting tizimi orqali baholashdan maqsad, talabalarda o'qitilayotgan fanlarni chuqur egallash, topshiriqlarga ijodiy yondoshish, mustaqil fikrlash, o'z bilimini muntavam ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish va shu tariqa raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishish.

Reyting tizimi quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

-talabalar o'zlashtirishini muntavam ravishda nazorat etib borish, ularni semestr (o'quv yili) davomida o'z ustilarida uzluksiz faol ishlashlarini ta'minlash;

-talabalar bilimini haqqoniy, aniq va adolatli baholash hamda natijalarini ularga muntavam ravishda ma'lum qilish;

-talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini keng rivojlantirish;

-professor-o'qituvchilarda ma'ruva va amaliy mashg'ulotlarga puhta tayyorgarlik ko'rib, baholash savollarini tuzishda mas'uliyatini oshirish.

Fan bo'yicha maksimal reyting bali, o'quv rejasida aynan shu fanga ajratilgan soatlar miqdori bilan belgilanadi. Talaba bilimini baholashda, avval uning o'zlashtirish ko'rsatgichi aniqlanadi, so'ng dars soatlari miqdoriga muvofiq uning fan bo'yicha reytingi hisoblab topiladi.

Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntavam ravishda olib boriladi va quyidaga turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JBda fanning har bir mavzusi bo'yicha talabanning bilim darajasini (o'zlashtirishini) aniqlab borish navarda tutiladi va u odatda, amaliy mashg'ulotlar (seminar yoki laboratoriya ishlari) darslarida amalga oshirilishi mumkin.

OBda fanning har bir mavzusi bo'yicha talabanning bilim darajasini (o'zlashtirishini) aniqlab borishni navarda tutiladi va u odatda, amaliy mashg'ulotlar (seminar yoki laboratoriya ishlari) darslarida amalga oshirilishi mumkin.

OBda fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo'lim yoki qism bo'yicha navariy mashg'ulotlar o'tib bo'linganda so'ng talabanning navariy bilimlari baholanadi va unda talabanning muayyan savol yoki muammoni echish mahorati va qobili yati aniqlanadi.

YABda fanning semestr (o'quv yili) davomida o'tilgan hajmi doirasida talabanning bilimi baholanadi. YaB turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 30% miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha JB va OB turlarida talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal reyting ballning miqdori o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 70% miqdorida belgilanadi. Oliy ta'lim muassasalariga o'z xususiyatlaridan kelib chiqib JB va OB turlarining foizlarini belgilash huquqi beriladi.

YaB turi tayanch tushunchalarga asoslangan "yozma ish" usulida yoki boshqa

usullarda (ogʻvaki, test, himoya va hokazo) ham oʻtkazilishi mumkin.

Tayanch tushunchalarga asoslangan “yozma shn” usulini oʻtkazish tartibi “Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida “yozma ish” usulini tadbiiq etish boʻyicha Namunaviy Nizom” bilan belgilanadi.

Oʻquv rejaga muvofiq oʻqitilishi bir necha semestr (oʻquv yili)ga rejalashtirilgan fan boʻyicha talabanning umumiy reyting balli har bir semestr (oʻquv yili) davomida shu fan boʻyicha talaba tomonidan toʻplangan reyting ballar yigʻindisi bilan aniqlanadi.

Baholash turlari har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqdan holda, dars jarayonida soʻrov oʻtkazish, test savollariga javob berish, kontrol ishlarini bajarish, kollokvium, suhbat va shu kabi boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Dekanat va kafedralar belgilangan tartibda fan boʻyicha talabanning OB, JB hamda YaB (“yozma ish” yoki boshqa usul) turlarida koʻrsatgan oʻzlashtirish koʻrsatgichlarini tahlil etib borishlari va ularning natijalarini belgilangan shakldagi qaydnomalarda qayd etishlari lozim. Baholash natijalari oʻquv boʻlimida operativ ravishda ishlovdan oʻtkaziladi. Reyting natijalari oliy taʼlim muassasasining Ilmiy Kengashida muntavam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Oliy ta'lim muassasasi fan bo'yicha baholash turlarining har biri bo'yicha reyting ballarini hisoblash kriteriyalarini ishlab chiqadi (nazorat ishlari, test sinovlari, savollar to'plami va hokazo) va Uslubiy Kengashda tasdiqlaydi.

Semestr davomida o'tilgan fan bo'yicha maksimal ballning kamida 55%ini to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Semestr davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal ballning 55% dan kam ball to'plagan talaba, qoniqarsiz o'qiyotgan talaba (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 foiz — “a'lo”;
- 71 - 85 foiz — “yahshi”;
- 56-70 foiz — “o'rta”;
- 55 foizdan kam ---“qoniqarsiz”.

Talabaning barcha turdagi amaliyotlardan olgan bilim va ko'nikmalari, kurs ishi yoki kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi (loyihasi), davlat attestasiyasi natijalari o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi va reyting daftarchasida alohida qayd etiladi.

Reyting ballarini hisoblashda talabaning o'quv mashg'ulotlardagi faolligi, mustaqil ishlarni bajarishga ijodiy yondosha olish, o'quv-mehnat intizomiga amal qilish sifatleri ham hisobga olinishi (reyting balli doirasida 10% gacha) maqsadga muvofiq.

JB, OB va YaB turlarida fanni o'zlashtira olmagan (55% dan kam ball to'plagan) yoki sababli baholash turlarida ishtirok eta olmagan talabalarga 1 (bir) hafta muddat ichida qayta baholashdan o'tishga ruhsat berilishi mumkin.

Fan bo'yicha belgilangan maksimal reyting ballning 55% dan kam ball to'plagan talaba, belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi (birinchi kurs talabalariga nisbatan o'quv yili yakunlari bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiq).

Talabani kursdan kursga o'tkazishda o'quv rejada muayyan semestr (o'quv yili)ga belgilangan fanlardan talaba to'plagan reyting ballar miqdori hisobga oli-

nadi va rektorning buyrugʻi bilan amalga oshiriladi.

Har bir fan boʻyicha oʻtkazilgan baholash turlarida talaba toʻplagan reyting ballar miqdori, belgilangan tartibda tasdiqlangan shakldagi qaydnomada qayd qilinadi. Semestr davomida fan boʻyicha utkazilgan baholash turlarida talaba toʻplagan umumiy ball, talabaning “Reyting daftarchasi”ga yoziladi.

Talaba, fan boʻyicha oʻtkazilgan baholash turlarida, fanga ajratilgan maksimal ballning 55% dan kam ball toʻplagan holda, uninug shu fan boʻyicha toʻplagan reyting ballari “Reyting daftarchasi”da qayd etilmaydi. Har bir fan boʻyicha oʻtkaziladigan baholash turlarining (JB, OB va YaB) natijalari dekanat va kafedra- lar tomonidan reyting nazorati ekranida muntavam ravishda yoritib boriladi. Reyting nazorati ekranini tashkil etish va uni yuklatiladi belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish vazifasi fakultet dekani zimmasiga yuklatiladi.

Tayanch soʻz va iboralar

1. Reyting;
2. Loyiha;
3. Yakuniy baho va reyting nazorat.

Takrorlash uchun savollar.

1. Maʼruva matnlari dastlabki adabiyot manbai ekanligini tushuntiring.
2. Seminar mashgʻulotlarini oʻtkazish tartibini tushuntiring,
3. Laboratoriya va amaliy mashgʻulotga izoh bering.
4. Kurs ishlarini yozish tartibini tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "Istiqlol va maʼnaviyat" T.: Oʻzbekiston " 1994y.
2. Karimov I. A. "Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish y oʻ -ilda" T.: "Oʻzbekiston", 1995y.
3. Karimov I. A. "Barkamol avlod Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori" T.: "Oʻzbekiston", 1997y.
4. "Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim toʻgʻrisida"gi Qonuni ,1997y.
5. "Maʼnaviyat va maʼrifat ijtimoiy markazlarini takomillashtirish haqida"gi Prezident Farmoni. T.: 1996y.
6. Boboxonov A. "Oʻzbekistondagi pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan". T.: "Oʻqituvchi" nashriyoti, 2001y.
7. Donishmandlar tarbiya hususida. T.: "Oʻqituvchi" nashriyoti, 2001y.

5 Mavzu: Mustaqil ish va talabalar mehnatini ilmiy tashkil etish.

5.1. Mustaqil ish-yuqori malakali kadrlar tayyorlashning asosiy usuli sifatida

Mustaqil ishni bajarish—oliy o'quv yurtlari bakalavriatida talabalarni o'qishining asosiy bosqichi hisoblanadi. Mustaqil ishni bajarish maqsadi quyidagilardan iboratdir.

Ta'lim bo'yicha navariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash ularni kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy vazifalarni hal etishda qo'llanilish demakdir. Bunda talaba mustaqil ishni ishlashda ijodiy ishlashga undashishidir.

Ishlab chiqarilayotgan masalaning qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga etkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan ma'suliyatni his etishga o'rgatishdan iborat. Vamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta'minlanishidir.

Talabalar o'zlarini mustaqil ish ustida ko'p ishlashlari natijasida malakali kadrlarni tayyorlashga asos bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil ish natijasida oliy o'quv yurtlari bilan tarmoq o'quv yurtlari malaka oshirish tizimlarining xalq xo'jaligi xodimlarining bilimlarini uzluksiz yangilab borishga ularni fan texnika, madaniyat va tajriba yutuqlarini o'zlashtirishiga undaydi. Bundan tashqari malakali kadrlar tayyorlashda xalq hujaligi kadrlarini qayta tayyorlash tizimida o'quv mashg'ulotlarning ilmiy uslubiy saviyasini oshirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydi. Natijada mustaqil ish malakali kadrlarni qayta tayyorlash sohasida oliy o'quv yurtlari korxonalar, turdosh korxonalar guruhlari, tarmoqlar yoki hududiy idoralar bilan hamkorlik tajribalarini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

5.2. Talabaning- vaqt byudjeti va ish kuni, ulardan samarali foydalanish.

Talabaning vaqt byudjeti va ish kuni, ulardan samarali foydalanishni to'g'ri tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi hamda Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining "O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va foydali mashg'ulotlar bilan ta'minlash to'g'risida"gi 1999 yil, 1 sentyabrdagi 277/201/693-sonli buyruqni qabul qildi.

Respublikamizda ijtimoiy-siyosiy jarayonning yanada takomillashuvi yoshlar orasida erkin fikrlash va ijtimoiy faollikni yanada kuchaytirmoqda. Bu narsa ular orasida olib borilayotgan faol tarbiyaviy jarayonning natijasidir. Lekin ba'zi joylarda yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning etarlicha olib borilmayotganligi tufayli yoshlar o'rtasida ba'zi jinoyatlar, huquqbuvarlik holatlari sodir bo'lmoqdaki, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari talaba-o'quvchilari ham bundan mustasno emas.

Ba'zan esa juda kam bo'lsada bilmagan holda ba'zi norasmiy tashkilotlar ta'siriga tushganlar ham topiladi. Bundan ko'rinib turibdiki yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarbiyani yanada takomillashtirish, barcha joylarda ularni Vatanparvarlik, istiqloq mafkurasi ruhida tarbiyalashning barcha omillarini ishga solish varur.

Shu sababli o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, shu jumladan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'lim olayotgan va "O'quvchi-talabalar uyi"da yashayotgan o'quvchi-talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda foydali mashg'ulotlar bilan ta'minlash, o'quvchilarning har hil norasmiy oqimlarga qo'shib qolishining oldini olish hozirgi kunning asosiy maqsadi bo'lib qolmoqda.

"O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va foydali mashg'ulotlar bilan ta'minlash to'g'risida" Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi Markazi, Madaniyat ishlar vazirligi va Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitalarining tadbirlari Ilova bo'yicha tasdiqlandi.

Qo'shimcha_buyruq va tadbirlar asosida o'quvchilariing darsdan tashqari vaqt-

larini mazmunli o'tkazish, yotoqxonalarda istiqomat qilayotgan talaba o'quvchilarning namunali hordiq chiqarishi bo'yicha tuzilgan ish rejalarini qayta ko'rib chiqib o'zgartirishlar kiritildi.

O'tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlarda talaba o'quvchilarning ma'naviy ma'rifiy dunyosini kengaytirish, ularni ijodiy faoliyatga jalb etish, san'at va sport sog'lomlashtirish ishlariga qiziqishlarini kuchaytirish, badiiy estetik didlarni o'stirish masalalariga e'tiborni qaratildi. Ushbu tadbirlarga o'z uylarida ba hususiy honadonlarda yashobchi talaba- o'qubchilar keng jalb qilindi.

5.3. Talabalarning aqliy faoliyatini tashkil etishda, Prezident asarlarini o'rganishning asosiy masalalari.

Talabalarning aqliy faoliyatini tashkil etishda, Prezident asarlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning (Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti 1998 yil) kitobida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, istiqoldagi ulkan vazifalar keng va chuqur tahlil qiligan. O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini topishi, respublikamiz ichki va tashqi siyosatining asosiy yonalishlari, amalga oshirilayotgan islohatlarning manbalari va xarakatlantiruvchi kuchlari bayon etib berilgan.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning "O'zbekiston buyuk kelajak sari" kitobini Respublika Oliy va O'rta maxsus o'quv yurtlari talaba-o'quvchilari orasida o'rganish uchun 24 (12 soat ma'ruza, 12 soat amaliy mashg'ulot) soat miqdorida maxsus kurs kiritilgan. Bu kurs o'quv yurtlarida 1998 yil 9 noyabrdan boshlab joriy etildi va kursni o'qitish uchun yuqori malakali professor-o'qituvchilar jalb qilindi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 1998 yil 28 oktyabrdagi Farmonida milliy-an'analar va qadriyatlarni e'zozlash bilan birga, ayrim hollarda to'y-xashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishda shuxratparastlik, dabdababozlik, isrofgarchilik kabi eskdan qolgan asoratlarga yo'l qo'yilayotganligi, bu esa o'z navbatida muqaddas an'analarimizni obro'sizlantirishga olib kelayotganligi, yoshlarimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi hamda jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'layotganligi alohida ta'kidlangan.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning yuqoridagi Farmonini bajarishni ta'minlash maqsadida o'quv yurtlari rahbariyati, hodimlari tomonidan o'tkaziladigan to'y-ma'rakalarda ortiqcha sarfxarajatlarga ruju o'iymaslik, o'zlarining extiyojlaridan ortgan mablag'larni mehr-muruvvat yo'lida, kam ta'minlangan oilalarga, iqtidorli talaba-o'quvchilarga moddiy yordam ko'rsatishda, o'quv yurtini va unga tegishli hududlarni obodonlashtirish, ta'mirlash ishlarida foydalanishni yo'lga qo'yish hamda talaba yoshlarni milliy ma'naviy-ahloqiy an'analar doirsidagi vamonaviy urf-odatlar, marosimlar va milliy tiklnish mafkurasi ruhida tarbiyalash ishlarini amalga oshirish vazifalaridan bugungi kunning dolvarb masalasi.

Mazkur masala yuvasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonida va ushbu buyruqda navarda tutilgan masalalar o'quv yurti jamoatchiligi orasida keng va atroflicha muhokama etilayapti. O'quv yurti xodimlarining to'y-ma'rakalarini, oilaviy tantanalarni va boshqa marosimlarni o'tkazish yuvasidan o'quv yurtining tegishli tadbirlari ishlab chiqilgan va amalga oshirilayapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Turkiston» gazetasi va «Turkiston-press» agentligi muhbirlarining savollariga javoblari, Toshkentda sodir bo'lgan fevral voqealari hamda Xalq deputatlari Horazm viloyati Kengashining navbatdan tashhari sessiyasidagi nutqida ilgari surilgan goyalar, berilgan ko'rsatmalar munosabati bilan Respublika oily o'quv yurtlarida ta'lim - tarbiya jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha yangi vazifalar vujudga keldi.

Respublika oily va o'rta mahsus ta'lim vazirligining navbatdagi hay'at majlisida ana shu vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan masalalar muqokama etildi. Hay'at majlisida talaba-o'qituvchilarning dinshunoslik va huquqiy bilimlarini oshirish, dinlarda kechayotgan jarayonlar haqida, ayniqsa diniy ekstremizm va uning turli hil ko'rinishlari, mohiyati, maqsadlari to'g'risida ularga atroflicha keng va chuqur bilimlar berish, har xil mafkurviy tahdidlardan ularni muhofava qilish, el-yurtga, Vatanga sadoqatli, mehr-oqibatli, ijtimoiy sog'lom ongli yuksak va keng dunyoqarashli mutahassislar qilib tarbiyalash bo'yicha aniq va maqsadli tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish varurligi ta'kidlandi. Ko'pchilik o'quv yurtlarida shunday tadbirlarni amalga oshirish yuvasidai muayyan ishlar bajarilayotgan bo'lsada, ayrim joylarda masalaga yuvaki qaralmoqda, talaba-o'qituvchilarning qiziqishlarini o'rganish, yashash, o'qish va dam olish sharoitlarini yanada yahshilash, ularning qiziqishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini foydali tadbirlar bilan band qilishni yo'lga qo'yish bo'yicha samarali ishlar olib borilmayapti, ayrim hollarda, ba'zi-bir talaba-o'qituvchilarning nimalar bilan qiziqishlari, darsdan bo'sh vaqtlarida qaerda, nimalar bilan shug'ullanayotganligi kabilar o'quv yurti rahbariyati, professor- o'qituvchilar nazoratidan chetda qolmoqda. Ba'zi bir oliy o'quv yurtlarining rah-bariyati o'z talabalarining darsdan tashqari faoliyati bilan to'la tanish emas yoki tanish bo'lsada, ularning nojo'ya hatti-

harakatlarini ko'rib ham o'zlarini ko'rmaganga oladilar. Masalan, Farg'ona politexnika instituti rahbariyati Fevral voqealaridan keyin Vazirlik so'roviga muvofiq bo'lib turgan axborotlarida bir oy davomida har doim "hizbut-tahriri islomiya" diniy-siyosiy yfoniwaga a'zo bo'lgan va ular g'oyalariga moyilligi bo'lgan talabalar Farg'ona politexnika institutida yo'q deb ta'kidlab kelgani holda, 1999 yil 18 mart kuni "Xalq so'zi" gazetasidagi maqolada bu institutning ettita talabasi nomlari ko'rsatilib, yuqorida reaksiya oqimga jalb etilganligi ma'lum bo'lgach, bu haqda Vazirlikka ma'lumot beradi.

O'quv yurtlaridan Vazirlikka yuborilayotgan hujjatlar, hisobotlar, axborot va ma'lumotnomalarning ko'pchiligi na shaklan, na mazmunan rasmiy hujjat talablariga javob bermaydi, ularda tekshirilmagan, aniqlanmagan, chalkash va hatto ma'lumotlar, tala va maqsadga javob bermaydigan ortiqcha tafsilotlar, ilmiy, faktik, arfografik, leksik va boshqa kamchiliklar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiya materiallarini ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritish to'g'risida"gi 1999 yil 20 aprel 184-raqamli qarorida Oliy Majlisning XIV sessiyasida ko'rilgan masalalarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Karimovning undagi nutqida XXI asrning dastlabki yillarida vatanimizning ma'naviy rivojlanishi, davlat va jamiyat qurilishi, siyosiy va iqtisodiy sohasidagi strategiyasi va asosiy ustuvor yo'nalishlarining talaba-yoshlar tomonidan chuqur va atroflicha o'rganishni ta'minlash, ularda yuksak fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish va mustahkamlash, o'z bilimlarini chuqurlashtirishga hamda tanlangan kasbi bo'yicha yuqori malaka orttirishga ongli intilishni tarbiyalash varurligi qayd etilgan.

Shu vazifalardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning Oliy Majlisning XIV sessiyasida so'zlagan nutqini oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari va talabalari orasida atroflicha va chuqur o'rganish tashkil etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasi materiallari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning unda so'zlagan nutqidan kelib chiqadigan vazifalarni o'rganish oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari va

talabalari o'rtasida atroflicha tashkil etilayapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis XIV sessiyasidagi "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" ma'ruvasida hamda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasi materiallarini ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritish to'g'risida"gi 1999 yil 20 apreldagi 184 -raqamli qarorida Respublika ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan dolvarb vazifalar vazirlikda va o'quv yurtlarida atroflicha, keng o'rganiladi va alsarish uchun dasturamal sifatida qabul qilindi.

Oliy Majlis XIV sessiyasi materiallari va Respublika Prezidentining undagi ma'ruvasini barcha o'quv yurtlarida 1999 yil 1 maydan boshlab 16 soat hajmda maxsus kurs sifatida dars jadvaliga kiritib o'qitish bo'yicha tegishli tadbirlar va o'quv dasturi ishlab chiqildi va o'quv yurtlariga tarqatildi.

Respublika oliy o'quv yurtlari rahbariyati va faollarining 1999 yil 18 mayda Vazirlikda bo'lib o'tgan yig'ilishida Prezident Islom Karimovning ushbu ma'ruvasida kadrlar tayyorlashning sifati va samaradorligini oshrish, talabayoshlarni barkamol avlod sifatida ma'naviy-ahloqiy jihatdan barkamol shahslar qilib tarbiyalash masalalari, bunda oliy o'quv yurtlari oldida turgan muhim vazifalar keng va atroflicha muhokama etildi. Yoshlar tarbiyasiga tahdid solayotgan ayrim diniy ekstremistik guruhlar va ularning g'arazli niyatlari haqida ma'lumotlar keltirildi. O'quv yurti jamoasini, talabalarni ularning ta'siridan muhofava qilish tadbirlari haqida gapirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasidagi ma'ruvasida XXI asrning dastlabki yillarida mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, davlat qurilish va boshqaruvi, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, tashqi va ichki sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan istiqbol rejalarini chuqur va har tomoplama tahlil qilib berildi. Vatanimizning kelgusi taqdirini belgilab beruvchi mazkur masalalarni tahlilining, shu jumladan, s-uuglarning puhta o'rganishni ta'minlash, ularning bu jarayonlarda tashabbus ko'rsatib faol ishtiroq etishga erishish, har bir kishida bu vazifalarni bajarishda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish hozirgi kunning dolvarb masalalaridan biridir.

Prezident Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruvasida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda ularni oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari va talaba-o'quvchilari orasida atroflicha va chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Vazirlik huzurida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq yuqori bilimli va yuksak ma'naviyatli mutahassislarni tayyorlashning dolvarb masalalari"ga bag'ishlangan, doimiy faoliyat ko'rsatadigan Respublika amaliy seminari tashkil qilindi. Seminarda ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida o'quv-uslubiy jarayonlarni va boshqaruv tizmini yanada takomil-lashtirish vazifalari bo'yicha sho'bbalar ish olib borishi navarda tutilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Vatanimiz mustaqilligiga tahdid solayotgan havf, jumladan diniy ekstremizm va terrorchilik harakatlariга murosasiz bo'lish, ularning g'ayriinsoniy va g'ayriqonuniy mohiyati va mazmunini, maqsad va faoliyatlarida islom dinining ma'naviy ahloqiy qadriyatlariga aloqasi yo'qligi va zidligi to'g'risida aholi orasida va ayniqsa yoshlar orasida ishonarli dalillar bilan tushuntirish ishlarini olib borish haqida doimo uqtirib kelmoqda.

Prezidentimizning bu ko'rsatmalari va unga muvofiq qabul qilingan hukumat qarorlarini, jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy ma'naviy muxitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olishning chora-tadbirlari to'g'risi"da (1998y.26.03.№130) hujjatida berilgan vazifalar va topshiriqlarni bajarish yuvasidan vazirlikda bir qator samarali tadbirlar amalga oshirib borilmoqda.

Respublika o'quv yurtlarining dishunos o'quvchilarini hozirgi vaqtda dinlarda kechayotgan ayrim jarayonlar bilan yaqidan tanishtirish, diniy ekstrimizm, terrorchilik, "Hizbut-tahrir", "Vahobiylik", "Nurchilar", "Diniy fundametalizm" harakatlarnining mohiyatini ochib tashlash hamda bu borada talaba yoshlar orasida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida Respublika miqyosida bir qancha seminarlar, konferensiyalar, malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Ularda respublika davlat arboblari, etakchi olimlar, pedagoglar, mutaxassislar o'z ma'ruvalari bilan qatnashdilar. Bunday tadbirlar barcha oliy o'quv yurtlarida ham tashkil etildi. O'quv

yurtlari raxbariyati, dekanlari, kafedra va markaz mudirlari, professor o'qituvchilar va talabalar uchun har oyda bir marta din va siyosat, din va qonunchilik hamda diniy ekstremizm va fundamentalizm, aqidaparastlik kabi masalalarga bagishlangan «Mustaqillik va din» mavzusida ma'rifiy o'quvlar

O'quv yurti jamoalari va talaba-o'quvchilar joylardagi huquq-tartibot idoralari mas'ul xodimlar bilan uchrashuvlar, davra suxbatlari, savol--javob tadbirlari tashkil qilinmoqda. Talaba-yoshlar va professor o'qituvchilar uchun «Islom: bag'rikenglik va mutaassiblik», «Islom: xanafiylik va vohobiylik», «Dunyoviy davlat va din», «Ko'ngildagi buzilish», «qonun vijdon erkinligi va din», kabi ommabop risolalar ko'p nusxalarda nashr etildi va barcha o'quv yurtlariga tarqatildi.

O'quv rejasida mavjud bo'lgan «Dinshunoslik» fani hajmi oshirildi, barcha o'quv yurtlarida «Diniy ekstremizm va fundamentalizmning ijtimoiy moxiyati» umumiy mavzusi ostida 10 soatlik yangi kurs joriy etildi. Mazkur kursni o'qitish bo'yicha kerakli dasturlar va o'quv qo'llanmalari ishlab chiqildi.

Masala yuvasidan respublika viloyatlari o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishish hamda ularga tegishli uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida Toshkent oliy o'quv yurtlarining mutaxassis professor-o'qituvchilari viloyatlardagi oliy o'quv yurtlariga xizmat safariga yuborildi. Ular mutaxassislar bilan birgalikda turli maxallalar, tashkilotlar, korxonalar va muassasalar ham uquv yurtlari jamoalari o'rasida ma'ruvalar o'qidilar, davra suhbatlarida ishtirok etdilar. Bunday tadbirlar viloyatlardagi 90 dan ortiq maxalla va tashkilotlarda o'tkazilib, ularda 20 mingga yaqin fuqaro ishtirok etdi.

O'quv yurtlarining yetakchi mutaxassis pedagoglari respublika diniy va huquq-tartibot idoralarining mas'ul xodimlari bilan birgalikda markaziy matbuotda, radio va televideniya ma'naviy-ahloqiy va milliy qadriyatlar mavzularida, shuningdek diniy ekstremistik va aqidaparastlik xodisalarining g'ayri-qonuniy xatti-harakatlari to'g'risida, yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish tadbirlari haqida ma'ruvalar, suhbatlar o'tkazmoqdalar. Talaba-o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini sifatli va samarali o'tkazish maqsadida o'quv yurtlarida «Quvnoqlar va zukkolar», «Nihol», «Universiada» kabi badiiy,

ilmiy to'g'araklar, jismoniy tarbiya bo'yicha seksiyalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Prezident Islom Karimov Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasi ikkinchi yig'ilishidagi so'zlagan nutqida mamlakatimizda barcha ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarga raxbarlik qilayotgan shaxslarning ma'naviy ahloqiy va ishbilarmonlik xususiyatlariga to'xtalib, ular vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligini amalga oshirishda haqiqiy fidoiy bo'lishlari, xalqimizning ertangi hayotdagi orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishlari, quruq, balandparvoz gaplar bilan emas, o'z vazifasini xalol mehnat va yuqori malaka bilan, vijdonan bajargandagina jamiyatda yuksak obro'-e'tibor qozonishi, hurmatga sazovor bo'lishligini uqtirib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Vazirlar Mahkamasining "1999 yilda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va 2000 yilda iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruvasida esa, kichik va o'rta biznesni mamlakatimizdagi ahvoli xususida to'xtalib, bu sohada ko'p xollarda mulkchilik shaklining o'zgarishi rasmiyatchilik uchun bo'layotgani, ish to'g'ri tashkil etilmagani, rahbarlarda yangicha fikrlash yetishmasligi kabi masalalarga e'tiborni qaratdi. Shu bilan birga Prezident Islom Karimov xaqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, erkin tadbirkorlikka g'ov bo'layotgan buyruqbozlik barham berish, chet el sarmoyasini jalb etishni ko'paytirish, bozor infratuzilmasi institutlarining faoliyatini takomillashtirish, o'zgarib borayotgan bozor munosabatlari talablariga javob beradigan yuqori malakali va yuksak ma'naviyatli mutaxassislarni tayyorlash borasidagi vazifalarga aloxida to'xtalib o'tdi.

Taraqqiyot yo'lidan bormoqchi bo'lsak, ertangi kunning vaminini bugun yaratmog'imiz kerak, buning uchun esa avvalo iqtisodni erkinlashtirish varur, dedi Prezident Islom Karimov. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlisning ikkinchi chasiriq birinchi sessiyasi ikkinchi yig'ilishida so'zlagan nutqi va Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish — eng muhim vazifamiz»

ma'ruvasida belgilangan vazifalar bajarilmoqda.

5.4. Talabalar aqliy mexnatining madaniyati va rasional dam olishini tashkil etish

Talabalar aqliy mexnatining madaniyati va rasional dam olishni tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «o'quv yurtlarida ma'naviy ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ularning samaradorligini oshirish to'g'risida»gi 1998 yil buyrug'i muxim ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida Respublika o'quv yurtlarida talabayoshlarni yuqori malakali mutaxassislar qilib tayyorlash bilan bir qatorda ularni komil inson etib tarbiyalash sohasida ham ma'lum ishlar amalga oshirildi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha 1—prorektor va direktorning 1-o'rinbosarlari lavozimlari va ularning mazkur ishlar bilan shugullanuvchi bo'limlari joriy etildi, nizomlari ishlab chiqildi. O'quv yurtlari ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha tizimi faoliyatini o'varo muvofiqlashtirish hamda uning ishlariga raxbarlik qilish maqsadida Vazirlik qoshida «Ma'naviyat va ma'rifat» Markazi tuzildi. 50 soatga mo'ljallangan «Ma'naviyat va ma'rifat asoslari» kursi joriy qilindi, uning o'quv dasturi ishlab chiqildi, bir qancha o'quv adabiyotlari nashr qilindi. Talabayoshlar orasida, ularning Vatanta, millatga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi «Ma'naviyat qalbim quyoshi», «Vatanni sevmoq iymondandir», «O'zbekiston Vatanim, iftixorim va shon-sharafim» va boshqa mavzularda Respublika insholar ko'rik tanlovlari o'tkazildi. Tanlov natijalari maxsus to'plamlarda nashr etildi, tanlov go'liblariga bag'ishlab anjumanlar tashkil qilindi. «Vatan va millat muqaddasdir», «Tolibnoma», «Talabalar so'zida vatan», «Vatan ko'nglimizda», «O'zbekiston: qaramlik va mustaqillik yillarida», «O'zbekiston: mustaqillikning yili» va boshqa kitoblar, plakatlar, albomlar chop etildi va o'quv yurtlariga tarqatildi.

Shu bilan birga talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirishda o'quv yurti jamoa a'zolaridan har birining faol ishtiroki ta'minlanmayapti, tarbiyaning rangbarang shakllari, uslub va vositalari bo'yicha talaba-yoshlarning qalbi va ongiga yetib boradigan tadbirlar majmuasi to'la qo'llanmayapti. Bu yo'nalishda o'tkaziladigan tadbirlar rasmiyatchilik kompaniyabozlik illatlaridan to'lig'icha ozod bo'lgan emas. T'a'lim jarayonida har bir fanning talaba-yoshlarda ilmiy dunyoqarashini, ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni shakllantirishdagi imkoniyatlaridan to'la foydalanilmayapti. Bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan uslubiy ishlanmalar ko'pchilik ixtisoslik kafedralarda tayyorlanmagan.

Talaba-o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini unumli foydalanishida va ularning badiiy-estetik ehtiyojlarini qondirishda katta ahamiyat kasb etadigan badiiy xavaskorlik va boshqa to'garaklar tashkil qilish va ular faoliyatidan foydalanish, yoshlarni muzey, ko'rgazma, teatr, sport tadbirlari, tarixiy joylarga olib borish ishlari hozirgi kun talablariga jaiob bermayapti.

Vazirlikning 1996 yil 16 sentyabr 221 - raqamli buyrug'ida o'quv yurtlari ma'naviy va ma'rifiy tuzilmalarining moddiy texnika bavasini mustaxkamlash to'g'risidagi topshiriqlar TKTI, BuxDU, BuxOOESTI, GulDU, JizPI, QarMII, NavKI, SamDMSI, SamDChTI, TerIFY, UrDUlarda to'lig'icha bajarilmayapti.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiniag «Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ularning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1998 yil qarorini bajarish hamda yuqorida qayd etilgan o'quv yurtlaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar soxasidagi kamchiliklar bartaraf etilmoqda.

Respublika o'quv yurtlari jamoalarining, xususan, talaba-o'quvchilariing kundalik turmush madaniyatini yuksaltirish, ma'naviy--axloqiy fazilatlarini takomillashtirish, ular orasida tartib-intizomni mustaxkamlash, xususan, ularda o'zi va atrofdagilarning sihat salomatligiga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, turli xil baxtsiz xodisalar ro'y berishidan (texnika, trans-

port, elektr, gaz va boshqa xavf-xatardan) muhofava qila bilish tadbirlarini ko'rish hamda bu ishlarga mutasaddi bo'lgan o'quv yurti rahbarlarining, pedagoglar va murabbiylarning mas'uliyatini oshirish uchun o'quv yurtida, ayniqsa, talaba--o'quvchilar orasida tarbiyaviy ishlarni yangicha sharoitda tashkil etishni va amalga oshirishni ta'minlash bosh maqsadimiz bo'lmog'i kerak.

O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining «Ma'naviy ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1998 yil 24 iyuldagi qarori, Vazirlikning mazkur qarorni bajarishga qaratilgan 1998 yil buyrugi va uning 1998—2000 yillarga mo'ljallangan tadbirlar dasturini o'quv yurti xayotiga tashkiliy jihatdan yuqori saviyada tatbiq etish ta'minlansin hamda har olti oyda Vazirlikka bajarilgan ishlar to'g'risida axborot taqdim etish.

O'quv yurtida tajribali pedagoglar, olimlar, murabbiylar ishtirokida tadaba--o'quvchilarda kundalik turmush madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar majmuasi ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Tadbirlar majmuasida quyidagilar navarda tutilgan: - o'quv yurti xodimlarining, talaba-o'quvchilarning atrof- muhitga, o'zlari yashayotgan va o'qib turgan» joylarga, o'zi atrofida qilarning sixat-salomatlitiga nisbatan ongli, madaniy va mas'uliyatli munosabatda bo'lishini tarbiyalashga ahamiyat berish; ularning o'z-o'zini turli xil baxtsiz xodisalar ro'y berishidan (texnika, transport, elektr, gaz, suv, o't-olov, har xil asbob-uskunalar, dori darmonlardan foydalanishda) muhofava qila bilishga, ehtiyotkorlikka o'rgatish;

Talaba-o'quvchilarning o'z turmush tarzini yuksak madaniy darajada tashkil etishlariga mexnat qilish, ovqatlanish, dam olish gigienalariga to'la va muntavam amal qilishlarga erishish;

talaba o'quvchilar orasida yuksak ma'naviy-axloqiy, tamoyillarga asoslangan muomala madaniyatini shakllantirish va takomillashtirish;

ularda o'varo do'stlik birodarlik hamkorlik hamdardlik tuyg'ularini tarbiyalash;

talaba-o'quvchilarining o'varo muomala--munosabatlarida qo'pol so'z va

iboralarni ishlatmasliklariga, bir birilari bilan, shuningdek o'zidan katta yoshdagi kishilar, ustozlar bilan muomalada odob-axloq qoidalariga rioya etishlariga erishish; talabalar uylarida «Kun tartibi»ni ishlab chiqish va unda belgilangan tartib-qoidalarga barcha talaba-o'quvchilarning qat'iy rioya qilishlarini ta'minlash; o'qituvchilarning navbatchiligini tashkil etish; talaba- o'quvchilarning o'qish, ishlash va yashash joylarida sanitariya gigiena qoidalariga qat'iy amal qilinishini ta'minlash. Ozodalik va orastalik masalalari bo'yicha talaba-o'quvchilar bilan joylardagi tibbiy-sanitariya xodimlarining uchrashuvlarini tashkil etitl; o'quv yurti binolari va talabalar uylarini xozirgi va- mon talablari darajasida jihozlash va tayyorlashga alohida e'tibor qaratish; xususan, o'quv yurti xududidagi, talabalar uylaridagi xizmat ko'rsatish tizimi bar- cha tarmoqlarining muntavam va sifatli ishlashini tashkil etishga erishish;

spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilishning vararli holatlari to'g'risida talaba-o'quvchilar orasida tushun- tirish ishlari olib borish, bunga ularni ishontirishga qaratilgan amaliy tadbir- larni qo'llash;

O'quv yurti raxbariyatining «Kamolot», «Ma'naviyat markazi», «Kasaba uyushmasi», «Xotin-qizlar kengashi», «Talabalar kengashi» va boshqa jamoatchilik tashkilotlarining diqqat e'tiborini, faoliyatini talaba- o'quvchilarning madaniy saviyasini yuksaltirishga, ma'naviy-axloqiy tar- biyasiga jalb etish;

O'quv yurtidagi kutubxonalar, klublar, madaniyat saroylari faoliyatini va turli mavzulardagi to'garaklarning ishini talaba-o'quvchilar orasida ma- daniy tarbiyaviy tadbirlarni ko'p va muntavam ravishda olib borishga qaratish;

talaba-o'quvchilarni vaqtli matbuot bilan muntavam ta'minlashni yo'lga qo'yish;

talaba-o'quvchilarning o'qishdan-ishdan bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish maqsadida ularning o'quv yurti professor o'qituvchilari, taniqli jamoat

va davlat arboblari, mashxur kishilar bilan suxbat-uchrashuvlarini tashkil qilish;

-o'quv yurtida, mintaqalarda va o'quv yurtlararo talaba o'quvchilarning bilimlari, shuningdek madaniy- axloqiy saviyasi jixatdan eng yaxshi gurux, eng yaxshi qurs, namunali o'quv yurti kabi unvonlar uchun musobaqalar, ko'rik-tanlovlar o'tkazish tadbirlarini belgilash, munosiblar na g'oliblarni moddiy-ma'naviy taqdirlash;

-o'quv yurti xodimlari, talaba-o'quvchilar orasida respublika o'qituvchilar va murabbiylar kunini tantanali nishonlash bo'yicha tegishli tadbirlarni amalga oshirish va xokasa.

Mazkur buyruqning birinchi bandida yuqoridagi tadbirlarni o'quv yurti mablag'laridan na xomiylar xizmatidan, yordamidan samarali foydalanish orqali amalgam oshirish navarda tutilgan.

Vazirlikning mas'ul xodimlaridan iborat ishchi guruxning jadval bo'yicha o'quv yurtlarida bo'lib, mazkur buyruqning bajarilishi bilan tanishish hamda varur xollarda amaliy yordam ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Tayanch soʻz va iboralar.

1. Vaqt byudjeti.
2. Xotira, fikrlash eʼtibor,
3. rasional dam olish.

Takrorlash uchun savollar.

Mustaqillikning mohiyatini tushuntiring.

Mustaqil ishni rejalashtirish tartiblashga izoh bering.

Mustaqil ishni yozishda talabalarning adabiyotlardan foydalanish tartibini koʻrsating.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. A.. «Istiqlol va maʼnaviyat» T.:«Oʻzbekiston»,1994y.
2. Karimov I.A. «Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida» T.: «Oʻzbekiston», 1995Y.
3. Karimov I.A. «Barkamol avlod Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori» T.: «Oʻzbekiston», 1997Y.
4. «Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonuni 1997Y,
5. Maʼnaviyat va maʼrifat ijtimoiy markazlarini takomillashtirish xaqidagi Prezident Farmoni. T.: 1996Y.
6. Boboxonov A. Oʻzbekistondagi pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan.-T.: «Oʻqituvchi» nashriyoti, 2002y.
7. Donishmandlar tarbiya xususida. T.: «Oʻqituvchi» nashriyoti, 2001 y.

6 Mavzu: Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish.

6.1. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini va o'quv jarayonini tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik xuquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda. Inson har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andovalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida, vamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va taxnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Buning uchun har bir talaba o'zining ilmiy ishlarini bajarish uchun harakat qilmog'i kerak. Shundagina talaba o'quv fanlarini mukammal o'zlashtirishga qodir bo'ladi. Bu esa mutaxassis kadrlar tayyorlashda muxim rol o'ynaydi. Iqtidorli talabalar O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil va millat ziy-nati xisoblanadi. Shuning uchun iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini va o'quv jarayonini tashkil etish ko'zda tutiladi. Iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlash vazifalari quyidagilardan iborat: iqtidorli talabalarning intellektual salohiyati chuqur bilim olishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga aloxida e'tibor qaratish; malakali professor-o'qituvchilarni iqtidorli talabalar bilan individual ishlashga jalb etish; ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yunalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli talabalarni keng jalb etish; iqtidorli talabalar bo'yicha respublika banki va monitoringini shakllantirish; maxsus o'quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish; buyurtmachilar talabini qondiruvchi malakali, har tomonlama kamol topgan kadrlarni tayyorlash.

Oliy ta'lim muassasalariga kiruvchi yoshlarga kasbiy yo'naltirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish va natijasi bo'yicha xisobot taqdim etish, qabo'l komissiyasida ishlash, materiallar tayyorlash va kafedra majlislarida oliy ta'lim muassasida (fakultet) kengashida, ilmiy-uslubiy kengashlarda ishtirok etish, oliy maktab va malaka oshirish tizimi boshqaruv organlari toshpirlari bo'yicha tashkiliy ishlarni bajarish, darsdan tashqari vaqtlarda sport tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish (sport sog'lomlashtirish lagerlari va uquv mashq yig'inlari talaba va magistrantlar bilan jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar, sport bayramlari, kechalar va musobaqalarni o'tkazish.). Shu bilan birgalikda iqtidorli talabalarni ilmiy konferensiyalarga qatnashishiga imkon yaratib berish, ularning bilim saviyasini yanada oshirish, talabga javob beradigan ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarida ishlarini olib borishga sharoit yaratib berish, oliy o'quv yurtlaridagi kafedra o'z ishini qiziqarli olib borish maqsadida ularni ilmiy ish qilishlariga harakat qildirish ijobiy natijalarga olib keladi.

Oliy o'quv yurtlarida o'tilayotgan ma'ruva soatlarini imkoniyat darajasida muayyan kurs talabalari va talaba-magistrantlarni to'la qamrab oladigan potoklarda o'qitishni rejalashtirish tavsiya etiladi. Kursni potoklarga bo'lib o'qitish, faqat o'quv darslari har xil tillarda olib borilganda hamda katta sig'imli auditoriyalar mavjud bo'lmagan xollardagina ruxsat etiladi. O'ta murakkab fanlardan (rektorat tomonidan belgilangan) ma'ruvalar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazuvchi o'qituvchilarning yillik o'quv yuklamasi, qayd etilgan mashg'ulotlarning xajmiga qarab, 30%gacha qisqartirilishi mumkin. Amaliy mashg'ulotlar soatlarini xisoblash jarayonida asosiy o'quv birligi bo'lib, akademik gurux xisoblanadi.

Bakalavriatda 15-20 kishi;

Magistraturada 3-4 kishi;

Bakalavriatura bosqichida chet tillarni, muxandislik grafikasi chizmalari, chizmachilik chizma geometriya bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni hamda laboratoriya ishlari, kompyuter sinflarida mashg'ulotlar o'tqazish jarayonida guruxlar 8 -10 talabadan iborat guruhchalarga bo'linishi mumkin. Har bir talabaga ajratiladigan

umumiy soatlar sonini ayrim kafedrlar o'rtasida taqsimlanishini, mutaxassis chiqaruvchi kafedralarning taqdimoti bo'yicha rektorat (dekanat)ning qarori bilan amalga oshiriladi. Xuddi shunday tartib magistrlik dissertasiyasini bajaruvchi har bir magistrantga ajratiladigan umumiy soatlar sonini ayrim kafedrlar o'rtasida taqsimlanishida qo'llaniladi.

6.2. Ilmiy-tadqiqot ishlarini tayyorlashning asosiy yo'nalishi. Ilmiy-tadqiqot ishlari shakllari.

Xozirgi kunda, xozirgi sharoitda Respublikamiz ta'lim tizimini isloh qilishga Prezident Islom Karimov katta e'tibor qaratmoqda. Mintaqalarda oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlari bavalari mustahkamlash, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish, xalq xo'jaligi uchun varur mutaxassis kadrlarni jahon talablari darajasida tarbiyalab etishtirish ishlari bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan aytib o'tish lozimki, har bir davlatda mataxassis kadrlarni tayyorlashga bo'lgan e'tibor bo'lar ekan, shu davlat kelajagi uchun jonini berishga tayyor bo'lgan mutaxassis kadrlar ham bo'ladi. Bunday kadrlarni etishtirishda avvalo mamlakat oliy o'quv yurtlaridagi talabalarga ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish uchun sharoitlar yaratib berish kerak. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur to'g'risida"gi qonunlarni bevosita bajarilishini hamda Respublika va mintaqalarning istiqboliy rivojlanishini navarda tutgan xolda, kadrlar tayyorlashning aniq va ravshan dasturlarini tuzish va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta'minlash, shuningdek oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni barcha oliy o'quv yurtlari faoliyatida bir tarzda tatbiq etish va ta'lim, fan, ishlab chiqarishning va ilmiy-tadqiqot ishlarni o'varo uzviy bog'liqligini yanada takomillashtirish va shu tariqa oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalardan yuqori malakali, raqobatbardosh atroflicha kamol topgan mutaxassislarni tayyorlashdir.

Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida ilmiy- tadqiqot ishlari olib borilmoqda. 2004 yilda ham barcha soxalar kabi ilmiy-tadqiqot ishlari borasida ham qator katta tadbirlar amalga oshirildi. Joriy yilning birinchi choragida oliy o'quv yurtining profesor-o'qituvchilari va iqtidorli talabalarni ilmiy ishlarga jalb etish olib borildi, jumladan quyidagilar amalga oshirildi:

2004 yilning yozida Samarqandda o'tkaziladigan "Universiada--2004" sport musobaqalarining Toshkent shahar saralash bosqichida oliy o'quv yurtlari talabalari ham faol ishtirok etmoqda. Bugungi kunda ushbu sport musobaqalari davom etmoqda;

2004 yilning I-choragi davomida "Iste'dod" jamg'armasi orqali o'qishga ketgan oliy o'quv yurt talabalari o'z o'qishini davom ettirdi. Bundan tashqari boshqa yo'llar orqali xorijga ketgan oliy o'quv yurt talabalari hozirda horijda o'qimoqda;

Davlatimizdagi oliy o'quv yurtlari xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Bular jumlasiga AQShning Texas universiteti, Germaniyaning Kyoln universiteti, Rossiyaning Moskva Davlat Universiteti hamda Plexanov nomidagi Moskva Davlat Iqtisodiyot Akademiyasi kabi xorijning nufuzli oliy o'quv yurtlarini kiritish mumkin;

Oliy o'quv yurtlarda iqtidorli talabalar bilan ishlash ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarda ko'plab iqtidorli talabalar ilmiy ishlarga jalb etilgan bo'lib, I-chorakda -ularning ilmiy maqolalar chop etilgan, boshqalari esa turli ilmiy anjumanlarda ishtirok etishdi va o'zlarining ilmiy ma'ruvalarini anjumai to'plamida chop ettirdi;

Oliy o'quv yurtlarda 2004 yilning 1--choragida doktorlik va nomzodlik ishlari ximoyasi kuvatilmagan bo'lsa-da, aspirant va ilmiy tadqiqotchilarimizga avtoreferat chiqarishiga ruxsat berilgan va himoya kunlari belgilangan ;

2004 yil 1 – choragida oily o'quv yurtlarda monografiyalar chop etildi;

2004 yil 1 – choragida ham ixtirolar bo'yicha patentlar olinmagan bo'lsa-da, ammo davlat grantlari ustida ilmiy – tadqiqot ishlari olib borilmoqda;

2004 yil 1 - choragida o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining ko'plab ilmiy maqolalari xorijiy hamda respublikamiz gazeta va jurnallarida chop ettirildi;

2004 yilning 11 fevral kuni O'zbekiston Qurolli Kuchlari Markaziy Zabitlari uyida oliy o'quv yurtlaridagi kafedralarning tashabbusi bilan "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimi va sug'urta faoliyatini takomillashtirish yo'llari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi. Anjumanda O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari, ishlab chiqarish korxonalari, sug'urta tashkilotlari rahbar xodimlari, xorijiy va mamlakatimizdagi oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari qatnashdilar. Anjuman televidenie kanallari orqali namoyish etildi. Anjuman materiallari to'plam shaklida nashr ettirildi.

Ilmiy tadqiqot ishlari shakllari.

1.Rejalashtirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining bajarilishi (ilmiy tadqiqot mavzuiga rahbarlik qilish, ilmiy tadqiqot ishlarining bevosita bajarilishi, ilmiy tadqiqot ishlari natijalirining tadbiq etilishi bo'yicha bajarilgan ishlar, xisobot taqdim etish).

Darslik o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqola va ma'ruvalarni yozish va nashrga tayyorlash.

3.Darslik, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqola va ma'ruvalarni ilmiy tahrir qilish.

4. Darslik o'quv qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqola, ma'ruva hamda dissertasiyalarga va xokazo materiallarga (kafedraning topshirig'iga binoan) taqriz yozish.

5. Avtoreferatlarga, mualliflik, ixtiro takliflarga taqrizlar yozish, Doktorlik yoki nomzodlik dissertasiyasini ximoya qilishga tayyorgarlik ko'rish.

6. Ixtiro va rasionalivatorlik takliflar bo'yicha xujjatlarni tayyorlash va rasmiy ashtirish.

7. Ilmiy jurnallar taxririyyatida, ilmiy maqolalar to'plamlari taxririyyat kengashlarida va xakazo organlarda ishlash.

8. Ilmiy-texnikaviy bo'limlarda va ilmiy-uslubiy kengashlar hamda oliy maktab, vazirliklar va tapishlotlarning boshqaruv organlari qoshidagi komissiyalarda ishlash.

10.Oliy ta'lim muassasasining ixtisoslashgan kengashlari, ilmiy-texnikaviy va ilmiy uslubiy komissiyalari ishlarida ishtirok etish.

11.Kafedra, KB fakultetida, oliy ta'lim muassasasida talaba va magistrantlarning ilmiy tadqiqot ishlariga raxbarlik qilish.

12.Ilmiy-tadqiqot laboratoriyasiga raxbarlik qilish. Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlarning boshqa turlari, ishlab chiqarish, oliy ta'lim muassasalari va boshqalarning xodimlariga konsultasiyalar berish.

6.3. Kafedra, laboratoriya ilmiy- tadqiqot ishlarining mukammal olib borilishi vamon talabi.

Qadrlar tayyorlash Milliy dasturining asosiy talablaridan biri bo'lib, ya'ni ijtimoiy--iqtisodiy munosabatlarga to'la javob beruvchi, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan, malakali, Vatanga sodiq va fidoiy kadrlarni etishtirish hisoblanadi. Bunday kadrlarni tarbiyalab oliy o'quv yurtlari oldiga yangicha mazmunga ega bo'lgan vazifalarni amalga oshirishni va birinchi navbatda o'quv jarayonini tashkil etishda yangi shakl va uslublarni, o'quv laboratoriya honalarni kengaytirish va ularni vamonaviy asbob uskunalar hamda jihozlar bilan ta'minlashni talab etadi.

Kafedra, oliy o'quv yurti (fakultet) tuzilishidagi, bir yoki bir necha turdosh fanlar bo'yicha o'quv, uslubiy va ishlarni amalga oshiruvchi, talabalar orasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib boruvchi, shuningdeq ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlovchi hamda ularning malakasini oshiruvchi, asosiy tarmoq, hisoblanadi. Kafedra fakultet dekaniga yoki bevosita rektorga buysunadi. Kafedrani, odatda, professor unvoniga yoki fan doktori oliy darajasiga ega bo'lgan, belgilangan tartibda shu vazifaga saylanuvchi, kafedra mudiri boshqaradi. Kafedra tarkibiga professorlar, dosentlar, katta o'qituvchilar, o'qituvchilar, assistentlar, katta va kichik ilmiy xodimlar, doktorant va aspirantlar, shuningdek, stajyorlar, injener-texnik xodimlar kiradi.

Kafedra mudiri oliy o'quv yurtining barcha tarmoqlarida kafedra faoliyatiga tegishli masalalar muxokamasi va hal qilishida ishtirok etadi, kafedra ish rejasi, professor-o'qituvchi va xodimlarining shaxsiy ish rejalarini va kafedra faoliti doirasidagi boshqa xujjatlarni tasdiqlaydi, kafedra xodimlariga pedagogik yuklamalarni beradi va xodimlarning funksional vazifalarini belgilaydi hamda ularning uz vaqtida sifatli bajarilishini nazorat qiladi, kafedraga ishga olish, ishdan bushatish va xodimlarni vazifalarga tayinlash, ularni ma'naviy va moddiy rag'batlantiradi, oliy o'quv yurtinng tegishli xizmat tarmoqlaridan o'quv-tarbiyaviy va ilmiy-tadqiqod jarayonini o'tkazish uchun varuriy bo'lgan sharoitlarni tayyorlashni talab etadi.

Kafedra zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

-Barcha o'quv shakllari (ishlab chiqarishdan ajralgan va ishlab chiqarishdan ajralmagan holda) bo'yicha oliy ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq tuzilgan o'quv rejalarda belgilangan ma'ruvalar, laboratoriya, amaliy va boshqa turdagi mashg'ulotlarni yuksak navariy, ilmiy -uslubiy va kasbiy darajada o'tkazish; talabalarning malakaviy amaliyotiga, kurs loyihalariga (ishlariga), bitiruv malakaviy ishlariga, magistrlik dissertasiyalariga, shuningdeq mustaqil ishlarga rahbarlik qilish; talabalar bilimining reyting nazoratini joriy etish; talabalarning auditoriyadan tashqari ishlarini tashkil etish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;

- Darsliq o'quv-uslubiy va ko'rgazmali qo'llanmalarni tayyorlash, shuningdeq oliy o'quv yurti rektoratining topshirig'iga binoan qayta nashr etiladigan darsliq o'quv qullanma va o'quv-uslubiy adabiyotlar, jumladan, xorijiy olimlar bilan hammualliflikda yaratilganlariga xulosalar tuzish; nodavlat ta'lim muassasalarining buyurtmalari bo'yicha varuriy o'quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda ishtirok etish;

-Iqtidorli talabalar bilan ishlash, ularni olimpiyada va tanlovlarda ishtirok etishga tayyorlash, talabalarning mustaqil tayyorlanish shakl va uslublarini takomillashtirish, auditoriya ishlarini optimivasillashtirish hisobiga mustaqil tayyorlanish hajmini oshirish bo'yicha choralar ko'rish;

-Kafedra xodimlarining shaxsiy rejalaridagi o'quv, o'quv-uslubiy va tarbiyaviy ishlarini ko'rib chiqish; tajribali o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish; umumlashtirish va tarqatish, yangi pedagogik texnologiyani joriy etish, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishni boshlagan o'qituvchilarga pedagogik mohirlikni egallashda yordam beradi; axborot bavasini yaratish, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida vamonaviy o'quv-texnika vositalaridan va yakka tartibda o'qitish, mustaqil ta'lim olish vositalaridan foydalanish; masofali ta'lim tizimini rivojlantirish; xorijiy o'quv yurtlarining ish tajribasini yoritib berish; ma'ruva, amaliy, seminar (laboratoriya) mashg'ulotlariga va o'quv amaliyotiga tayyorgarlikni sifatli tashkil etish, ma'ruva matnlarini yangilash, qayta tahrir etish va nashr qildirish, belgilangan grafikka muvofiq o'varo darslarga kirish va ochiq darslar

o'tkazilishini yo'lga quyish, elektron darsliklar yaratilishini, tayyorlangan o'quv adabiyotlarning elektron versiyalari saqlanishini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini talab darajasida amalga oshirilishini ta'minlash.

Respublikamizda hozirgi kunda barcha oliy o'quv yurtlarda kafedra ishlariga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, talabalarning bunga qiziqishi kundankunga ortib bormoqda, kafedra tarkibidagi barcha fanlar maxsus laboratoriya xonalariga ega bo'lib, bu xonalar yetarli darajada jixozlangan asbob-uskunalar bilan ta'minlangan. Undan tashqari kafedrada faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning ko'pi fan nomzodlari hisoblanadi, ular tomonidan har bir fan uchun yetarli darajada o'zbek va rus tillarida o'quv-uslubiy qo'llanmalar va ko'rsatmalar ishlab chiqilmoqda hamda barcha fanlardan ma'ruva matnlari tayyorlanib ko'p nusxada chop etilmoqda. Oliy va o'rta ta'lim vazirligi bilan o'quv qo'llanma va a darslik yozish bo'yicha shartnomalar tuzilgan.

6.4. Oliy o'quv yurtining ilmiy-tadqiqot, ilmiy pedagogic kadrlar va iqtidorli yoshlarni tayyorlash faoliyatini kompleks baholash to'g'risida NIZOM

I.Umumiy qoidalar, oliy o'quv yurti (OO'YU)ning ilmiy--tadqiqot faoliyati (ITF)ni kompleks baholashning maqsad va vazifalari.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufidagi OO'YU va ilmiy tashkilotlarning ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash hamda iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash faoliyatini kompleks baholash tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ko'zda tutilgan vazifalar - ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash natijalarining samaradorligini, ilmiy-texnik ishlanmalarini tadbiq etilganligini va oliy o'quv yurtida ilmiy bo'limlar (ixtisoslashgan ilmiy-texnik va o'quv ishlab chiqarish ilmiy markazlari)ni rivojlantirilganligini hamda yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash borasidagi faoliyatini reyting asosida haqqoniy baholash uchun uslubiy asosdir.

Nizomda ko'zda tutilgan baholash tizimining maqsadi - Vazirlikning ilmiy va o'quv muassasalarida ilm--fanning rivoji, oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlar va iqtidorli talabalar tayyorlash natijalarini hamda amaldagi tashkiliy me'yoriy mexanizmlar, moddiy-texnik bava va axborotlar o'tkazib berish tizimlarining hozirgi vamon talablariga javob berishiai aniqlash hamda OO'YU lari professor-o'qituvchilari va iqtidorli yoshlarining ilmiy faoliyatlarini samaradorlik darajasi va sifatini reyting asosida haqqoniy baholashni yo'lga qo'yishdan iboratdir.

ITF kompleks baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Har biri OO'YU yoki uning alohida bo'limlari (fakultet, kafedra) tomonidan olib borilayotgan ITFning reyting balli — baholash ko'rsatkichining umumiy qiymatlarini aniqlash;

- Keyinchalik bartaraf etish maqsadida ITF tashkil etishdagi kamchilik va muammolarni aniqlash;

- Professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlarning samarali mehnatini moddiy rag'batlantirish, ilmiy bo'limlar rahbar xodimlari tarkibini yaxshilash borasida tashkiliy choralar qabul qilish maqsadida OO'YUlarining ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash bo'yicha solishtirma samaradorligini aniqlash.

Oliy o'quv yurtlarining ilmiy tadqiqot faoliyati O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko'zda tutilgan quyidagi yo'nalishlar ko'rsatkichlari asosida baholanadi:

- Mamlakatimiz fanining jahon ilm-faniga integrasiyasini faollashtirish borasidagi ko'rsatkichlar;

- Tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlarni yaratish borasidagi ko'rsatkichlar;

- OO'YU va ITIning fan va texnologiya sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish borasidagi ko'rsatkichlar;

- Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash hamda yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qullab-quvvatlash faoliyatiga oid ko'rsatkichlar;

- OO'YUning iqtidorli talabalarni aniqlash va o'qitish uslubiyati, pedagogik-psixologik va tashkiliy sharoitlarini yaratish va amalga oshirish borasidagi faoliyatining samaradorligi ko'rsatkichlari.

OO'YUning yuqoridagi har bir yo'nalishlariga oid faoliyati Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan va ta'sdiqlangan ko'rsatkichlar va uslubiyat bo'yicha amalga oshiriladi.

Baholash natijalari Vazirlik tomonidan ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha eng ilg'or OO'YUlarini rag'batlantirish va shu bilan bir qatorda bu faoliyatida oqsayotgan OO'YUlarining rahbar xodimlari tarkibini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish va tegishli yechimlar qabul qilish uchun qo'llanilishi mumkin.

Yil yakunlari bo'yicha erishilgan baholash ko'rsatkichlarining dastlabki hisob-kitoblari OO'YUlarining tegishli xodimlari tomonidan amalga oshiriladi, hisob-kitoblarning haqiqiyliги esa Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vaziri buyrug'i bilan tasdiqlangan tegishli komissiyalar tomonidan tekshiriladi. Har bir baholash ko'rsatkichi bo'yicha OO'YUning mutasaddi rahbarlari komissiya a'zolariga qo'yilgan ballarni asoslovchi tegishli hujjatlar va materiallarni taqdim etish. Baholash natijalari OO'YUning ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha yillyillik hisoboti bilan birgalikda har yili 31 dekabrgacha Vazirlikka yetkaziladi.

II. OO'YUning ilmiy- tadqiqot faoliyatini kompleks baholashni tashkil etish.

2.1. OO'YUning ilmiy-tadqiqot faoliyatini kompleks baholash maqsadida Vazirlik buyrug'i bilan rais va komissiya a'zolari tarkibidan iborat OO'YUlararo komissiya tuziladi.

2.2. OO'YUning ilmiy-tadqiqot faoliyatini kompleks baholash uchun komissiya raisi va a'zolari tarkibiga asosan OO'YUlarining etakchi profeseor-o'qituvchilari tayinlanadi.

2.3. Komissiya raisi:

- Komissiyaning barcha ishlariga bevosita rahbarlik qiladi va OO'YUning faoliyatiga berilgan bahoning haqqoniyliги uchun ma'suldir;

- OO'YUning ilmiy-tadqiqot faoliyatini kompleks baholash komissiyasi ishini tashkil etadi va bevosita rahbarlik qiladi.;

- o'ziga taalluqli barcha tegishli materiallarni OO'YUdan talab qilish huquqiga ega;

- OO'YUning ilmiy tadqiqot faoliyatini kompleks baholash natijalariga oid barcha varur materiallarni tayyorlaydi va ko'rib chiqish uchun vazirlikka taqdim etadi;

- Komissiya a'zolari OO'YUning ilmiy-tadqiqot faoliyatini kompleks baholash natijalariga oid barcha vazifalarni yuklatadi va qo'yilgan vazifalarini sifatli bajarilishini nazorat qiladi;

Reyting ballarning yakuniy qiymatlari hamda har bir baholash

ko'rsatkichshariga oid ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun bevosita ma'suldir.

2.4. Vazirlikning fan bo'limi har bir OO'YUning ilmiy-tadqiqot faoliyatini kompleks baholash bo'yicha boshqa OO'YUlardan tajribali-mutaxassis olimlardan iborat komissiya tuzishga oid tegishli takliflar tayyorlaydi, komissiya ishini tashkil qiladi hamda Vazirlik Hay'at majlisida OO'YU ilmiy-tadqiqot faoliyatini yakuniy baholash ishlarini tashkil qiladi.

III. Baholash yakunlash va baholash natijalaridan foydalanish.

3.1. Oliy o'quv yurtlariaro komissiya ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlashning natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni vazirlikka joriy yilning 1 fevraliga qadar takdim etadi.

3.2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi OO'YU ilmiy-tadqiqot faoliyatini kompleks baholash bo'yicha Oliy o'quv yurtlariaro komissiya ishiga rahbarlik qiladi hamda lozim bo'lganda, komissiya raislaridan berilgan ballarning haqiqiligini asoslovchi tegishli materiallarni talab qiladi.

3.3. OO'YUning ilmiy-tadqiqot faoliyatini kompleks baholash yakunlari Vazirlikning Hay'at majlisida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Tayanch so'z va iboralar.

1. Elektron darslik
2. labaratotiya
3. kafedra

Takrorlash uchun savollar.

1. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini va o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy mohiyati nimada deb o'ylaysiz?
2. Iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlash vazifalari nimalardan iborat?
3. OO'YUlarida kafedra va laboratoriya faoliyatining ahamiti qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I. A. «Istiqlol va ma'naviyat» T.: «O'zbekiston», 1994y.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: «O'zbekiston», 1995y.
3. Karimov I. A. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» T.: «O'zbekiston», 1997y.
4. «O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'grisida» gi Qonuni, 1997y
5. Ma'naviyat va ma'rifat ijtimoiy markazlarini takomillashtirish haqidagi Prezident Farmoni. T.: 1996 y

7 Mavzu: Talabalarni g'oyaviy tarbiyalash

7.1. O'zbekiston mustaqillikka erishgan va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida talabalarni g'oyaviy tarbiyalash.

Bu muqaddas vaiminda yashaotgan har qaysi inson o'z farvanding baxtu saodati, fazlu kamolotini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, o'zini ayamaydi.

Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga hos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farvandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.

O'zbek oilasi mustaqillik vamonida har o'zining tarixan shakllangan qiyofasini yuqotmadi. Ulug' adibimiz Abdulla Qodiriy qahramonlaridan birining: «Bu xonadondan hech kim norizo bulib ketgan emas», deya aytgan gaplarida elimizga xos katta hayotiy falsafa mujassam.

Bu yo'q joydan paydo bo'lgan gap emas. Ota-onaning farvand oldidagi burchlari, o'zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu diyonatli xonadon oqsoqollaridan so'rasangiz, ularni lo'nda qilib sanab beradi: yaxshi nom qo'yish, yahshi muallim qo'liga topshirib, savodini chiqarish, ilmli, kasbli hunarli, qilish, boshini ikki va uyli-joyli qilish.

Bugun ana shunday olijanob an'analar qaytadan mustahkam qaror topishi va rinojlanishi uchun istiqlol sharofati tufayli eng qulay muhit yaratildi. Bu, shubhasiz, ota-onalar na mustaqil, buyuk kelajakka intilayotgan davlatimiz zimmasiga juda katta vazifalar va ma'suliyatlar yukladi.

Lunda qilib aytganda, bugungi kunda oltamizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, vamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas barchamiz anglab yetmoqdamiz.

Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir

so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahondagi munosib, obro'li o'rin egallyashi uchun fidoiylik bilan ko'rashishi mumkin.

Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart zmas. Uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi», deb aytilgan gapni eslashning o'zi kifoya qiladi.

Mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy vaminini mustahkamlash, vamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andovalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Joylarda maktablarga va o'qituvchi-murabbiylarga, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, yordam berish masalalariga e'tibor ancha kuchaytirildi.

«Mahalla», «Kamolot», «Sog'lom avlod uchun», «Nuroni», «Iste'dod» «Ulug'bek» jamg'armalarining ta'lim-tarbiya sohasidagi ezgu ishlarini, o'sib kelayotgan avlodni jismonan sog'lom va ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qo'shayotgan hissalarini alohida aytib o'tish lozim. Bu borada amalga oshirilayotgan ijobiy tadbirlar ham kam emas.

7.2. Rektorat, fakultet va jamoat tashkilotlari, ijtimoiy kafedralarning talabalarni g'oyaviy tarbiyalashdagi faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli «Oliy ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi» Qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining mazkur Qarorning ijrosini ta'minlash to'g'risidagi 2002 yil 28 fevraldagi 25-sonli buyrug'iga tasdiqlangan o'quv rejasiga asosan Oliy o'quv yurtlarida yangi ta'lim standartlari asosida o'quv jarayoni tashkil qilinmoqda.

«Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorida qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, tayanch oliy o'quv yurti bo'lgan institutimizning yetakchi mutaxassislik kafedralari tomonidan ishlab chiqilgan va Oliy ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan 8 ta bakalavr yo'nalishlari va 34 ta magistratura mutaxassiliklari bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga, ularning namunaviy o'quv rejalariga mos ravishdagi fanlar dasturlari amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etildi. Institut tayanch Oliy o'quv yurti sifatida o'quv-uslubiy materiallar bilan tegishli Oliy o'quv yurtlarini to'liq yoki shartnoma asosida ta'minlash yo'lga qo'yildi..

Joriy o'quv yilida ta'lim jarayoni sifatini yanada yaxshilash maqsadida uni o'quv uslubiy materiallar to'laroq ta'minlanishiga katta e'tibor qaratildi. Har bir professor-o'qituvchi o'zi o'qiydigan fan bo'yicha o'quv-uslubiy komplekslarni yanada takomillashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Unda ushbu fanning namunaviy va ishchi dasturi, o'quv uslubiy harita, har bir mavzu bo'yicha ma'ruva matnlari, o'zbek va xorijiy tillardagi adabiyotlar ro'yhati, masalalar to'plami, «yozma ish» savollari variantlari, nazorat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertasiyalari mavzulari va ularni bajarish uchun uslubiy qo'llanmalar, seminar yoki amaliy mashg'ulot o'tish rejalarini, talabalar bilimini reyting asosida baholash uchun metodik tavsiyalar yangi talabalar asosida ishlab chiqilishi ta'minlandi.

Mamlakatimizda bosqichma bosqich amalga oshirilayotgan Kadrlar

tayyorlash milliy Dasturining oldiga qo'yilgan e'tiborli jihatlari uning «...kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishda, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta uzlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzda sharoitlar yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni navarda tutishi» dir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Davlat dasturi, Vazirlikning Hay'ati qarorlari va buyruqlarining dekanat, kafedra va boshqa bo'limlarga yetkazilishi va bajarilishini ta'minlash tizimi takomillashtirilmoqda.

Oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadigan magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalariga muvofiq umummetodologik, mutaxassislik va tanlov fanlari mutaxassislik kafedralari tomonidan o'qitiladi.

Shu nuqtai-navardan kelib chiqib, Oliy o'quv yurti kafedralari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limining amaldagi me'yoriy xujjatlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi hamda oliy o'quv yurti rektori ushbu masaladagi qator buyruq-ko'rsatmalari ijrosi ta'minlanmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «O'quv jarayoniga oid me'yoriy xujjatlarni tasdiqlash to'g'risida» gi 1999 yil 21 dekabrda 379-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan bajariladigan o'quv- uslubiy, ilmiy tadqiqod va boshqa ishlar hajmini belgilash bo'yicha vaqt me'yorlari asosida kafedralarning yuklamalari hisoblab chiqiladi va unga muvofiq ravishda shtatlar birligi belgilanib, har bir gumanitar va ijtimoiy iqtisodiy, umumkasbiy va maxsus kafedralar professor o'qituvchilarining majburiyat taqsimoti amalga oshiriladi. Ma'ruva soatlarini muayyan kurs talabalarini to'la qamrab oladigan potoklarda o'qitish rejalashtirilgan. Bunda auditoriya sig'imi inobatga olinadi.

Oliy o'quv yurtida amalga oshirilgan taqsimotga asoslanib, har bir kafedra professor-o'qituvchisining shaxsiy ish rejasi tasdiqlanadi va ularning to'liq

bajarilishi rektorat, dekanat va kafedra tomonidan nazorat ostiga olinadi.

Vamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini iqtisodiyot, fan va ta'limning barcha sohalariga keng joriy etish, xalqaro axborot tizimlariga, shu jumladan, internetga kirib borishni kengaytirish yuqori malakali dasturchi mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish maqsadida Oliy o'quv yurtlarida bu sohada keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Fakultetlar dekanati va kafedralari vamonaviy kompyuterlar va vamonaviy dasturlar bilan ta'minlandi.

Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida, fakultetlar miqyosida kompyuter tarmog'i tashkil etildi va yagona ma'lumotlar tizimini axborotlar banki ya'ni, yaratish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu axborotlar banki professor-o'qituvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni, talabalar bo'yicha barcha ma'lumotlarni, o'qitiladigan fanlarning dasturlarini, adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari dekanatlar va kafedralardagi kompyuterlarni Oliy o'quv yurti kompyuter tarmog'i va Internet tarmog'iga ulash ham amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy majmua yig'ilishida qo'yilgan vazifalarini hayotga tadbiriq qilish maqsadida institut miqyosida har oyning ikkinchi haftasining chorshanba kuni «Ma'naviyat kuni» deb belgilandi. «Ma'naviyat kuni» bir soatlik «Ma'naviyat darsi» bilan boshlanadi. Bu kuni institutimiz talabalari turli teatr, muzey, kinoteatr va shu kabi madaniy xordiq chiqarish maskanlariga olib boriladi

7.3. Milliy g'oya va milliy mafkurani egallash – ilmiy dunyoqarash shakllanishining asosidir.

Milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g'oyadir. O'z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalq kelajagini belgilaydi, unga yetishishni o'ziga mos yo'llarini tanlaydi. Ana shu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo'nalishlar bilan barcha g'oyaviy tamoyillarini ham belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiy bo'lgan g'oyalar nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan navariy jihatdan asoslab berilgan hamda "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida o'z aksini topgan. Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonigi, Komil inson, Ijtimoiy hamkorlik, Millatlararo hamjihatlik, Diniy bag'rikenglik kabilar ana shunday umummilliy g'oyalar qatoriga kiradi.

«Mafkura» tushunchasi. Har qanday navariya va ta'limot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonche'tiqodning asosini ham g'oya tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlarini va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi.

O'z oldiga qo'ygan maqsadlari, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bulayotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq na jamiyatning milliy mafkurasini asosini tashkil etadi.

Mafkura - muayan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlamlarning mafkurasini turlicha bo'lishi tabiiy. Buning asosida manfaatlarning turlichaligi, ularni qondirish imkoniyatlari va uslublarning har xilligi yotadi. Sinfy qutblashuv kuchaygan kurash avj olgan (yoki sun'iy ravishda keskinlashtirilgan) tuzumlarda mafkura o'ta siyosiy lashadi, aholini o'varo qarama qarshi qilib

quyadi.

Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashtirishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy jihatlar kuchayib boradi.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida hamjihatlik bilan harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fo'qarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o'ziga xos o'rni bo'lishga erishishga safarbar etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov mafkurash shunday ta'rif bergan: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan duyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rmini aniq ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida uziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman». Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yo'li va maqsadlarini aniq-ravshan charog'on etadigan mayoqdir.

G'oyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o'zi g'oyalar yaratadi, ularda kuch quvvat oladi. O'zi yaratgan g'oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkur va e'tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Yuksak g'oyalar odamlarni oliyjanob maqsadlar sari yetaklaydi G'oyasi yetuk, e'tiqodi butun, va qadriyatleri yuksak insongina mardlik namunalari ko'rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farvandlari-buyuk g'oya sohiblaridir.

7.4. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb -hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida 4 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undak keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqotlar muassasalarida (aspirantura, ad'yukantura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy tarixiy an'analariga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chilib, amalga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi.

O'zbekiston mustaqilligi prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari ota-onalar, oila, mahalla qumitalari, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi,

jamoat tashkilotlari bilan o'varo puxta hamkorlik qiladilar.

Oliy mutaxassislik ta'limi odatda 18 yoshdan boshlanib 4 yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadi.

Oliy mutaxassislik ta'limi bakalavrluk hamda magistraturaga bo'linadi.

Bakalavrluk yo'nalishlardan biri bo'lib, ba'vaviy oliy ta'lim berish demakdir. Unda o'qish har yili 1 yil davom etib, oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomini olish bilan tugaydi.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha oliy kasbiy ta'lim bo'lib, bakalavrluk negizida kamida 2 yil davom etadi. Undagi taxsil yakuniy kvalifikasion davlat attestasiyasi va magistrlik disertasiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetkaziladi.

TTTu bilan birga, biz o'z ehgiyojlarimiz va ichki sharoitlarimizdan kelib chiqib uzluksiz ta'limning rasmiy tizimida yakunlovchi bir bosqichni ham joriy etishimiz kerak. Bu bosqich ikki darajaga bo'linadi, ya'ni aspirantura va doktoranturadan iborat bo'ladi.

Aspirantura - nihoyasiga yetkazilgan magistrlik negizida 3 yil davom etadi.

Aspiranturaning maqsadi - muayyan mutahassisliklar bo'yicha oliy kvalifikasiyali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni shakllantirish. Aspirantura oliy va kvalifikasion imtihonlari hamda nomzodlik dissertasiilarini himoya qilish bilan yakunlanadi. Bu yakunlarga ko'ra, tanlangan mutaxassislik bo'yicha «fan nomzodi» ilmiy darajasi beriladi.

Doktorantura - fan nomzodi ilmiy darajasi negizida 2 yil davom etadi, dissertasiya himoya qilish bilan yakunlanadi. Yakunga ko'ra, tanlangan mutaxassislik bo'yicha «fan doktori» ilmiy darajasi beriladi. Boshqacha aytganda bu sohada avvalgi tartib saqlanib qoladi.

Bulardan tashqari, yangi tizimda qayta tayyorlash va malaka oshirish masalasiga ham katta e'tibor berilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'grisidagi qonuni fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-huvar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishidan iborat konstitusiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Ta'lim to'grisidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqolpogiston Respublikasida ta'lim soxosidagi munosabatlar Qoraqolpogiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solivadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomasida ta'lim to'grisidagi qonun hujjatlaridan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb elon qilindi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: ta'limning uzluksizligi va izchilligi,

- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-huvar ta'limining majburiyligi,

o'rta maxsus, kasb huvar ta'limining yo'valishini: akademik liseyda yoki kasb -huvar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi,

- ta'lim tizimining dunyoviy harakterda ekanligi,

- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi,

- ta'lim dasturlarini tanlashga yagova va tabaqalashtirilgan yondashuv,

- bilimli bo'lishni va iste'dodni ragbatlantirish,

- ta'lim tizimida davlat va jamvat boshqaruvini uygunlashtirish.

Jinsi, yoshi, tili, irqiy milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy ke-lib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy vavar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlavadi

Bilim olish ho'quqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish,

ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish,

- ta'lim va kadrlar tayyolash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida

to'lov evaziga kasb - hunaro'rgatish,

- barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi,

- oilada yoki mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditasiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida ekstervat tarkibida attestasiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlavadi.

Boshqa davlatlarning fo'qarolari O'zbekiston Respublikasida halqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

Ta'lim muassasalarida ta'lim berish tilidan foydalanish tartibi «Davlat tili haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solivadi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari; -ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun varur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

-ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga tegishli korxovalar, muassasalar va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini yagova va uzluksizdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

maktabgacha ta'lim;

umumiy o'rta ta'lim;

o'rta maxsus, kasb-huvar ta'limi;

oliy ta'lim;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashhari ta'lim.

7.5. Institut talabalari uchun ichki tartib – qoidalar.

Umumiy qoidalar. O'zbekiston Respublikasiga Konstitusiyasiga muvofiq har bir fuqaro qonunda belgilangan tartibda kasb tanlash, bilim olish, ijtimoiy himoyalash, sog'ligini mustahkamlash va boshqa huquqlarga ega.

Institut ichki tartib intizomi barcha talabalarning o'z majburiyatlarini ongli bajarishlariga asoslavadi. Vataniga cheksiz sadoqat ruhida har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida shakllana borish va yuksak ma'naviyatlilik uning varuriy shartlari hisoblavadi.

Institutda ta'lim jarayoni muammoli ma'ruvalar, semivlar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar. Talabalar anjumani, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti kurs ishhlari, diplom loyihasi, chet el oliy o'quv yurtlari bilan tajriba almashishlar, test va reyting vazoratlarini topshirish kabi hilma-hil shakllarda hamda interfaol usullarda tashkil etiladi.

o Har bir akademguruh bo'yicha davomat, o'tilgan dars mavzulari va vaqtlarini, shuningdek har bir talabaning reyting ballarini qayd etib borish maqsadida dekavat tomonidan maxsus jurval joriy etilgan bo'lib, u darsdan tashqari vaqtlarda dekavatda saqlavadi. Bu jurval har kuni mashg'ulotlar boshlanishi oldidan tegishli qaydlar qilish uchun mazkur guruxda dars olib boruvchi o'qituvchiga beriladi. Uqituvchi davomat va o'zlashtirish ko'rsatgichlarini ruruh jurvalida dars davomida aks ettirib borishi shart.

Guruh jurvalining saqlanishi uchun bevosita guruh murabbiyi va sardori javobgardir.

Talabalarning huquqlari:

- Institut laboratoriyalari, kabinetlari, kutubxovasi, o'quv vali, kompyuter tarmogidan, shuningdek sport inshootlari, madaniy va turar joy bavalaridan foydalanish;

- Institut kafedralarida olib borilayotgan ilmiy -tadqiqot ishlarida, to'garaklar faoliyatida ishtirok etish:

Amaldagi qonunga muvofiq stipendiya olish, barcha fanlardan test va

reying natijalariga ko'ra a'lo baholarga ega bo'lgan hamda institut ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan talaba-imtiyozli stipendiya olish;

- Ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'zlashtirish ma'vaviy, ma'rifiy -tarbiyaviy ishlarda, shuningdek talabalarning o'qish va mehvati intizomi, stipendiya tayinlash hamda o'qish va yashash tarzi bilan bogliq masalalarni muxokama qilishda qatvashish;

- Varurat bo'lgan hollarda fakultet yoki institut rahbariyatiga moddiy yordam surab murojaat qilish;

- Institut va fakultet miqyosidagi jamvat ipshlarida, sport seksiyalari va boshqa havaskorlik to'garaklari faoliyatida ishtirok etish;

- Prezident tomonidan tayinlangan barcha imtiyozli grantlarni olishda qatvashish;

- Imtiyozli diplom olish. A'lo va yaxshi vavariy tayyorgarlikka ega bo'lish, institut ijtimoiy hayotida, kafedralarning ilmiy tadqiqot ishlarida faol ishtirok etish orqali ishga taqsim qilinishda, magistratura va aspiranturaga kirishda imtiyozli huquqga ega bo'lish;

- Namunali xulqi, o'qishdagi, ilmiy- tadqiqot ishlaridagi yuksak ko'rsatgichlari, institut ijtimoiy hayotida faol ishtirok etganligi, Respublika ilmiy tanlovlari goli, xalqaro ko'riklar sovrindori bo'lganligi uchun quyidagi ragbatlantirishlarga sazovor bo'lish:

- Rektor tashakkurnomasini olish;

- Turli yorliqlar, qimmatbaho sovgalar bilan taqdirlanish;

- Alohida ta'sis etilgan stipendiyalarni olishga nomzod bo'lish va boshqalar.

Talabalarning majburiyatlari:

- Institut rektori va fakultet dekanlarining barcha buyruqlari bajarilishida va-muva bo'lish;

- Institutda utkaziladigan barcha ma'vaviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etish, ma'vaviy - madaniy, ilmiy saviyasini oshirish orkali barkamol insvaga aylava borish;

- Tashkilotchilik ommaviy – siyosiy, ma'vaviy ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ko'nikmasini egallash, ilmiy va siyosiy bilimlarni targib etishda faol qatvashish;

-Uzi tanlagan ixtisoslik bo'yicha vavariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni muntavam ravishda chuqur egalash orkali yuqori malakali mutaxassisga aylava borish;

- Institut o'quv rejasi va dasturlarida ko'zda tutilgan barcha topshiriqlarni a'lo darajada belgilangan muddatlarda bajarish;

-Joriy, oraliq va yakuniy baholashlarni topshirishda ishtirok etish hamda yuqori ko'rsatki chlarga erishish;

-Barcha mashgulotlarga oldindan puxta tayorgarlik ko'rib (qushimcha adabiyotlar, o'quv jihozlari va hokavalar mavjud, bo'lgan holda) kelish;

-Mashgulotlarda uzrli sabablarga ko'ra qatvasha olmagan talabalar fakultet dekaniga bu xaqida ma'lum qilish va darslar nima sababdan qoldirilganligini asoslovchi hujjatni (kasal bolib qolgan taqdirda talabalar poliklinikasi tomonidan berilgan ma'lumotnomani) taqdim etishi shart. Sababli hollarda talaba faqat fakultet dekani tomonidan rasmiylashtirilgan ta'til olishi mumkin;

-Togri rasmiylashtirilgan shaxsni tasdiqlovchi hujjat(pasport, talabalik guvoohnomasi yoki boshqalar)ni doimo enida olib yurish;

-Uzrli sabablarga ko'ra qoldirib yuborilgan, shuningdek topshirilmagan joriy, oraliq baholashni dekan ruhsatiga binvan qushimcha belgilangan muddatlarda topshirish va yakuniy nazorat natijasiga ko'ra reyting baxosini o'z vaqtida olish;

- Oliy o'quv yurtiga belgilangan formada KELISH (ozoda, batartib kiyimda,

ortiqcha taqinchoqlarsiz, o'gil bolalar galstuqda} hamda o'quv binolariga oyoq kiyimlarini tovalab

- Institut talabasi degan omga dog tushirmaslik

- Boshqa talabalar, institut professor o'qituvchilari va xodimlari bilan o'varo munosabatlarda xushmuomala bo'lish, yoshi kattalarga qo'lini kuksiga qo'yib salom barish;

- Institut hududida, o'quv binolarida, talabalar uylarida tovalikka riol qilish;

- O'z diniy e'tiqodidan qa'iy navar, diniy ekstremistik va shovinistik nuqtai - navarlardan tamomila holi bo'lish;

• Institut va talabalar uylaridagi ichki tartib qoidalarga to'liq rioya qilish, institut mulkini avaylab asrash.

Talabalarning burchlari:

• O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi, Davlat madhiyasi, Davlat bayrogini ezozlash, har kuni dars oldidan o'tkaziladigan Davlat madhiyasi ijrosida ishtirok etish;

• Uz namunali hulqi, «a'lo» va «yahshi» o'kish, yuksak ma'vaviyatli va madaniyati bilan «Moliya instituti talabasi» degan sharafli nomga munosib bo'lish;

• Sababsiz dars qoldirmaslik dars boshlanishidan anvalroq (professor-o'qituvchidan oldin) o'quv xonasida hozir bo'lish va darsga tayyorgarlik ko'rish;

• Binoga kirish va chiqishda, zinalarda va koridorda tartib saqlab, o'ng tomondan yurish, o'qituvchi va katta kishilarga yo'l berish;

• O'quv xonasiga o'qituvchi yoki boshqa mutasaddi kishilar kirganida o'rnidan turib «Assalomu alaykum!» deb salomlashish va ularni ruxsati bilan o'tirish;

• Tanaffus vaqtida tinchlik va tartibni saqlash;

• Uz burchini vijdovan va namunali bajarish,

Institut hududida quyidagilar qat'iy man qilinadi:

- Mashgulotlar paytida ko'chada, yo'laklarda yurish, tinchlik va osoyishtalikni buzish, darslarga xalaqit berish;

- Institut hududida yuqori tovushli mashina signali, qarsildoq va h.q larni ishlatish, o'quv binosida uyali telefon, radio va boshqa ovoz chiqaruchi vositalardan foydalanish;

- Bino ichida bot kiyimda yurish, saqich chaynash, institut xududida chekish, pista chaqish, tuflash, spirtli ichimliklar ichish va qimor o'nash;

- Ortiq darajada e'tiborni jalb etuvchi kiyimda (kalta yubka va tizvadan yuqori kuylakda yoki yuzni borkitib) yurish, sochni me'yoridan ortiq o'styarish yoki soqol qoyish;

- Institut mulkiga ziyon etkazish (parta, stol, STUL, eshik va devorlarga yozish, chizish va boshqalar).

- Ichki tartib intizomni buzganlik hollarida ko'riladigan choralar:

Institut ichki tartib-intizomini buzganligi uchun talabalarga nisbatan quyidagi jazo choralardan biri qo'llanilishi mumkin:

12 soatdan ortiq dars qoldirgan talabalarga xayfsan e'lon qilish va ularning xulq-atvorini guruhda muhokama qilish;

- 18 soatdan ortiq dars qoldirgan talabalarga qat'iy xayfsan e'lon qilish hamda ularning ota-onalar chaqirilib, ulardan farvandining xulq-atvoriga yozma ravishda izoh berishni talab qilish;

- etkazilgan moddiy vararning bir necha barobari miqdorida jarima solish;
- talabalar safidan chiqharish.

Talaba quyidagi xollarda institutdan chetlatiladi:

- Bir hafta (6 o'qish kuni) davomida institut bilan uzrli sababsiz aloqani uzganligi uchun;

- O'quv yili davomida 30 soat va undan ortiq sababsiz uquv

mashgulotlariga katnashmaganligi uchun;

-O'QUV yilida akademik qarzlari bo'lgan va ularni belgilangan muddatlarda topshirmaganligi uchun;

-Institut ichki tartib-qoidalariga zid hatti-harakat sodir etganligi uchun.

Intizomiy choralar institut rektori, uning muovnlari va fakultet dekani tomonidan qo'llaniladi.

Ushbu tartib-qoidalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 1999 yil 29 martdagi «Oliy o'quv yurtlarida o'quv va mehnat intizomini mustahkamlash to'risida» gi 99-sonli buyrugi hamda institut Ustavi asosida ishlab chikildi.

Tayanch so'z va iboralar

1 Milliy goya

2 Mafkura

Taqorlash uchun savollar

- 1.Talabalarni GOYAVIY tarbiyalash qaysi ijtimoiy jamgarmalar ishtirokida faol amalga oshirilmoqda?
- 2.Kadrlar tayyolash milliy dasturini tadbqiq etishda asosiy maqsad nima?
- 3.Milliy goya va mafkura deganda nimani tushinasiz?
- 4.Institut talabalari uchun ichki tartib qoidalarni sanab o' ting.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Boboxonov A. O'zbekistonda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. T.

“O'qituvchi” nashriyoti, 2001y.

2.Donishmandlar tarbiya xususida. T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 2001 y.

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A, "Yangi uy qurmay turib eskisini buzmay".-T.: O'zbekiston, 1993 y.
2. Karimov I.A. «Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida» "O'zbekiston", 1995 y.
3. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li»- T.: «O'zbekiston», 1993 y.
4. Karimov I.A. « O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" -T.: «O'zbekiston», 1997y.
5. Karimov I.A." O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy majlissining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruza. 1999 yil 14 aprel.- T.: «O'zbekiston», 1999 y.
4. Karimov I.A. «Barkamol avlod Uzbekiston taraqqiyotining poydevori»-T.: «O'zbekiston», 1997 y.
5. "Uzbekiston Respublikasining ta'lim to'grisidagi" Qonuni. 1997 y.
6. Boboxonov A. Ozbekistonda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. "O'qituvchi" nashriyoti -T, 2001 yil.
7. Ma'naviyat va ma'rifat ijtimoiy markazlarini takomillashtirish xaqidagi Prezident Farmoni. -T.; 1996 y.
- 10.Sobirob M. Furqatning maktab, maorif ba tarbiya haqidagi fikrlari. T.: "O'qituvchi" nashriyoti. 2001 y.
- 11.Donishmandlar tarbiya xususida. T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 2001 y.

Q'o'shimcha adabiyotlar.

12. Jonimatova X. "Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya to'g'risida" T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 1990 y.
13. Jan-Jak Russo. "Pedagogicheskie sochineniya" tom I M., Pedagogika, 1996 g.
14. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.: Fan nashriyoti 1996 y.
15. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: "O'qituvchi" nashriyoti. 1997 y.

MUNDARIJA

Kirish	4-5
1. O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim	6-28
2. Toshkent Moliya instituti	29-33
3. Oliy maktabdagi o'qish jarayonini tashkil etishning ilmiy asoslari	34-39
4. Oliy maktabda o'qitishning asosiy shakllari	40-50
5. Mustaqil ish va talabalar mehnatini ilmiy tashkil etish	51-66
6. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish	67-79
7. Talabalarni g'oyaviy tarbiyalash	80-96
8. Adabiyotlar	97